

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA KAFEDRASI

«JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNING MAXSUS
TURLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI»
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Geografiya» ta`lim y o`nalishi
bitiruvchi 4-kurs talabasi Qurbonov Rahmatjon

ILMIY RAHBAR
Dots. T.J.Jumaboyev

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.

_____sonli bayonnoma «__»_____2013 yil

Samarqand-2013

MUNDARIJA

Kirish.....

I BOB. TURIZMNING MAXSUS TURLARI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....

1.1.Jahon iqtisodiyotida turizmning ahamiyati.....

1.2. Turizm turlari va tasnifi.....

1.3.Turizmda maxsus turlarni shakllantirish.....

1.4.Turizm maxsus turlarining tasnifi

1.5.Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi.....

1.6.Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish yo`llari.....

1.7. Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish..

II BOB. JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNING MAXSUS TURLARI.....

2.1.Jizzax viloyati tabiati, aholisi, xo`jaligining umumiy xususiyatlari.....

2.2. Jizzax viloyatida turizmning maxsus turlarini tashkil etish.....

2.2.1. Milliy madaniyatga qiziqish turizmi.....

2.2.2. Qishloq va fermerlar hayoti turizmi.....

2.2.3. Qadimgi tabiat yodgorliklari turizmi.....

2.2.4. Milliy hunarmandchilik turizmi.....

2.2.5. Milliy o`yinlar turizmi.....

2.2.6. G`orshunoslik turizmi.....

2.2.7. Ekoturizm.....

Xulosa

Foydalangan adabiyotlar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bu tavsiyalar ham Rossiya davlatida chop qilingan adabiyotlar bo'yicha amalga oshirildiki, milliy turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan ham qayd qilingan tavsiyalar bizning sharoitimizda ham kutilgandek to'liq moslashgan emas. Mamlakatimizda turistik resurslarni to'liq ro'yxatga olishga, ularning mohiyatini yozishga jadal kirishilmayotganligining bosh sababi ana shunday holatda ekanligimizda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1995-yil 2-iyundagi 1162- raqamli "Buyuk ipak yo'li" ni qayta ishlashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirishda muntazam foydalanishni yo'lga qo'yish alohida ta'kidlangan edi.

Prezidentimizning qayd qilingan farmonidagi talablar bo'yicha ishlaganimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, xalqimizning boy tarixiy, madaniy, ijodkorlik va yaratuvchanlik merosi, tabiatimizdagi tabiiy-tarixiy ko'rinishlar xalqlarimizning o'tmish madaniyatini, hayotini aks ettirgan bitiklar hunarmandchilik ijodlari kabi ishlab chiqarish sohalarini ham ichki va xalqaro turistik resurslarga aylantirishning juda katta imkoniyatlari mavjud ekan. Respublikamizda turizmning keng qamrovli va salohiyatli turlari bilan birga nazarimizda kichik, noan'anaviy bo'lib ko'ringan resurslardan ham turizmga muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatlari beqiyos darajada salohiyatlidir. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Prezidentimizning farmonida "Mamlakatimizda turistik resurslarni tadqiq qilish, bu resurslardan ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda muntazam foydalanishni yo'lga qo'yish" – talablarini amalda bajarish hisoblanadi. Ikkinchidan, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 325-sonli qarorining bajarilishiga mualliflar ham o'z imkoniyat darajasidagi ulushini qo'shish istagidir.

Mavzu dolzarbligini hisobga olib turizmning maxsus turlariga baho berish, tavsiflar yozish, bu turlarning tizimidagi asosiy turlardan farqlanishini turizmdagi o`rni aniqlash tadqiqotlari bilan ishlamoqdamiz.

Mavzuning ilmiy yangiligi respublikamizda turizmni rivojlantirish uchun yangi turistik resurslarni tadqiq qilishdagi dastlabki ilmiy ishlardan ekanligidir. **Mavzuning maqsadi** turizmdagi maxsus turlarni aniqlash va turlarning ro`yxatini tuzish, maxsus turlardan turizmda foydalanishni asoslash, maxsus turlarning turizm marketingdagi o`rni, ahamiyatini belgilashdir. **Mavzuning vazifasi** turizmdagi maxsus turlarning geografiyasini o`rganish va maxsus turlarga ta`rif berish, turizmga jalb qilish hisoblanadi. **O`rganish ob`ekti** xalqimizning qadimiy hayot kechirishi davomida hozirgacha saqlanib kelingan va yanada rivojlanib borayotgan ijodkorlik, yaratuvchanlik mehnati, kasbiy yo`nalishlari, sohalari, milliy urf-odatlarini, o`yinlari, folklor san`ati, tabiatning tarixiy, ekologik, iqlim jarayonlarini yuzaga kelgan jarayonlaridir.

Ishning amaliy ahamiyati. O`zbekiston turizmidagi asosiy ro`yxati turlariga qo`shimcha bo`lib, ya`ni istiqbolli maxsus turlar ro`yxatining yaratilishi va bu maxsus turlardan turizmni rivojlantirishda foydalanishning asoslanishi hisoblanadi. Turizmdagi maxsus turlar ta`rifidan keyin har bir maxsus tur bilan qiziquvchilar amalda ko`payadi, tadbirlarning harakatlari boshlanadi, marshrutlar ishlab chiqiladi, maxsus turlar ijodkorlarida fidoiylilik, chuqur jisman kuchayadi, maxsus turlardan turizmda foydalanish dasturlari yaratiladi, turlardan foydalanish ommaviylashadi.

I BOB. TURIZMNING MAXSUS TURLARI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI

1.1. Jahon iqtisodiyotida turizmning ahamiyati

Xalqaro turizm jahon miqyosida yil sayin o'sib, u makroiqtisodiy tarmoqlar darajasiga chiqib oldi. Hozirgi kunda dunyoning ko'pgina davlatlarining asosiy daromad manbai xalqaro turizm hisoblanadi. Shu bois olimlar va mutaxassislar XXI asrni turizm asri bo'lishini bashorat qilishmoqdalar. Binobarin, turizm XX asrning ohiriga kelib murakkab tarmoqqa aylandi. Chunki milliy iqtisodning barcha tarmoqlari, jumladan, sanoat va boshqa ko'plab iqtisodiy-ijtimoiy sohalari bilan chambarchas bog'liqdir. 1970-yildan 2000-yilgacha o'tgan davr mobaynidagi jahondagi sayyohlar soni 160 milliondan 698 mln. kishiga oshgan. Bu esa dunyo aholisining $\frac{1}{4}$ qismi turizm bilan band bo'lgan. (Aleksandrova 2008). Keyingi yillarda dunyo bo'yicha turizmga band bo'lgan aholining soni yildan yilga oshib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra 2005 -yilgacha bo'lgan davrda butun jahonda 930 mln kishi ya'ni, yer yuzi aholisining 16% ini turizmga jalb etish mumkin. (Soliyev, Usmonov 2005). Bu Yevropada 300 mln, Shimoliy va Markaziy Amerikada 98 mln, Osiyoda 95 mln kishini tashkil etadi.

Sayyohlar o'sishi unga bo'lgan intilish bir tomondan ishlab chiqarishning hududiy joylanishi va rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Aholining turmush sharoiti, madaniy hayoti va moddiy farovonligining o'sishi, kishilarning boshqa hudud va mamlakatlar xalqlarini bilishga, shuningdek tabiiy, madaniy, manaviy yodgorliklardan bahramand bo'lishga intilishlarining o'sishi bilan bog'liq. Jahon bo'yicha turizmdan tushayotgan daromad 448 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, u 2010 yilda 1.1 trillion AQSH dollarigacha oshishi kuzatilmoqda.

So'ngi yillarda G'arbiy Yevropa va AQSH xalqaro turizmga yetakchi o'ringa chiqib oldi. Ayni vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda ham bu sohaga e'tibor kuchaymoqda. Tabiati go'zal va iqlimi qulay dengiz bo'ylarida joylashgan mamlakatlarda kurort turizmi, ya'ni dam olish va sog'lomlashtirish turizmi

yuksalib bormoqda. Shuningdek, bu mamlakatlarda ekoturizm yetakchi tarmoqqa aylanmoqda. Ta'kidlash lozimki, har bir mamlakatning turistik salohiyati uning geografik o'рни, tabiiy sharoiti, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy darajasi hamda turizm bozori va industriyasining holati bilan bog'liq. Bunday omillar dunyo bo'yicha turlicha ko'rsatkichlarga ega bo'lib, tarmoqqa qaratilgan e'tibor va imkoniyatlardan foydalanish bilan xarakterlanadi.

Xalqaro turizm erkin iqtisodiy mintaqalarni tashkil etishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, dunyo bo'yicha bunday mintaqa dastlab Germaniyada 1940-yillarda vujudga kelgan va uning bosh omili turizm bo'lgan. Hozirgi kunda qator erkin iqtisodiy mintaqalar faoliyatida turizm muhim salmoqqa va ahamiyatga ega. Masalan: birgina shimoliy iqtisodiy mintaqasi yiliga 7 mln sayyohni qabul qilib, o'rtacha 7-8 mlrd AQSH dollari miqdorida daromad oladi. Erkin sayyohlik mintaqalari geografik sharoiti va ijtimoiy-siyosiy omillar hamda tarmoq infratuzilmasi bilan bog'liqdir. Jahonda mashhur turistik mamlakatlar Fransiya, Shvetsariya, Gretsiya, Ispaniya, AQSH, Gretsiya, Misr, Turkiya, Xitoy, Kanada, Malayziya, Norvegiya, Avstraliya, Meksika kabilar tarmoqqa asosiy iqtisodiy maydon sifatida qaraydi va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari istiqbolini turizm bilan aloqadorlikda ko'radi. Demak jahon iqtisodiyotida sanoat, transport, qishloq xo'jaligi kabi yirik tarmoqlar qatorini rivojlanayotgan turizmni mamlakatimizda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

1.2. Turizm turlari va tasnifi

Turizm termini fransuzchadan olingan bo'lib, "taech"- "aylanma harakat", "sayr- sahoyat" degan ma'noni anglatadi. 1963-yilda BMTning xalqaro turizmga oid Rim konferensiyasi xulosasiga binoan "sayyoh" yoki "turist" deb bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga safarga borib, kamida 24 soat ichida o'sha yerda turib sayyohlik xizmatlaridan foydalangan kishiga aytiladi. (Mironenko, Tverdoxlebov, 1981). Shuningdek, bu qoida turli yillarda o'zgarib turdi. Masalan, 1991-yil Ottava shahrida o'tkazilgan butunjahon turistik tashkiloti va BMT hamkorligida "Xalqaro turizm va statistika" mavzusidagi konferensiya qoidasiga

binoan 24 soat emas 12 oydan ortiq bo'lmagan vaqtda sayyohlik xizmatidan foydalangan kishini sayyoh deb atalgan. Umuman olganda aholining o'zi turgan mintaqa hudud yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsion faoliyat turiga sayyohlik yoki turizm deyiladi. Turizm keng ma'nodagi tushuncha, turizm va sayyohlik ya'ni butun bir soha turist-sayyoh demakdir. Turistik resurslar maqsad va vazifalariga ko'ra tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan, turizm geografiyasi bilan rekreatsiya geografiyasining ob'ektlarini aniqlash muhim masaladir. Rekreatsiya geografiyasi dam olish va hordiq chiqarish, sog'liqni tiklash, tabiiy go'zallikdan zavqlanib, ruhini ko'tarishga qaratilgan faoliyat majmuini o'z ichiga oladi. Rekreatsiya so'zi polyakcha "rekreatsiya"-dam olish, lotincha "recreatio"-sog'liqni tiklash degan ma'noni anglatadi. Binobarin, uzoq muddatga mo'ljallangan rekreatsion faoliyat turizmga mos keladi va shu nuqtai nazardan ham turizm geografiyasi an'anaviy rekreatsiya geografiyasi bilan bog'liqdir. Sog'liqni tiklash va dam olish maskanlari hozirgi kunda katta daromad manbaiga aylanishi va bu joyda turistik xizmatlarning yo'lga qo'yilishi jihatidan qaralganda "rekreatsiya turizm" tushunchalariga aniqlik kiritiladi. Rekreatsiya turizm bevosita sog'liqni tiklash (sanatoriya, kurort) bilan bog'liq bo'lib, bu faoliyat turi keyingi yillarda jahon miqyosida ommaviy, hamda sayohatlarni o'ziga tortadigan qadamjolariga aylanmoqda. Xususan, tabiati, iqlimi go'zal va musaffo havosi sayyohlarning miriqib dam olishini ta'minlasa, o'simlik dunyosi, daraxtlar, shivobaxsh suv va o't-o'lanlar to'g'ridan-to'g'ri inson salomatligi, kasalliklarini davolovchi xususiyat bilan bog'liqdir.

Rekreatsiya geografiyasining kishilar sog'ligini tiklash, sog'lomlashtirish dam olishini maroqli o'tkazishini ta'minlash uchun ekskursiyalar uyushtirish, turli madaniy, tarixiy-manaviy turistik ob'ektlarga borishi turizm sohasiga bog'lanib ketadi. Chunonchi "ekskursiya" lotincha –safar, sayohat qilish ma'nosini anglatadi. Bu jihatdan ekoturizm, tog', g'or, dengiz, ko'l va boshqa sayyohlik ob'ektlari bilan bog'liqligi uchun iqtisodiy va ijtimoiy geografiya o'rnini tashkil etish mumkin.

Turizm o`zining umumiy xususiyatlari va funksiyalariga ko`ra 4 ta tipga ajratiladi (Soliyev A., Usmonov M., 2005).

- 1.Davolanish;
- 2.Sog`liqni tiklash va dam olish;
- 3.Tanishuv;
4. Diniy va boshqa.

Malakaviy bitiruv ishida biz aynan 2 tipga doir turizm tasnifini Qashqadaryo viloyati misolida tahlil qilishga harakat qildik. Bu yerda birinchi funktsiyani bajaruvchi “Davolanish” turizmi bevosita sog`liqni tiklash va dam olish turizmi bilan bog`liq holda ko`rish mumkin. Biroq davolanish og`ir kasallik bilan bog`liq bo`lsa u kurort turizmi bilan bog`lanib ketadi. Dam olish va sog`lomlashtirish turizmi esa ekoturizm bilan bog`liq deb hisoblash mumkin.

Tanishuv xarakterli keng ma`noda va va tor ma`noda funktsiyani bajarish mumkin. Keng ma`noda u barcha sayyohlik obe`ktlarini, tarixiy, madaniy, zamonaviy shaharsozlik, arxeologik, ekotrustik va boshqalar bilan bevosita va bilvosita tanishish mumkin. Tor ma`noda esa, tanishuv tipi ikkinchi darajali bo`ladi. Masalan, dam olish, sog`liqni tiklash maqsadida tabiatga chiqqan sayyohlarning asl maqsadi sog`ligini tiklashda qaratiladi. Biroq sayohat davomida bilvosita turli turistik ob`ektlar bilan tanishiladi. Shu jihatdan qaraganda turizmning bu tipini majmualiy tip deb baholasa ham bo`ladi. Ma`lumki, turizmning ikki asosiy bo`limi mavjud bo`lib, bular ichki (mahalliy) va tashqi (xalqaro) turizmdir.

Mahalliy turizm – bu o`z mamlakati hududida hech qanday qiyinchiliksiz (vizasiz, bojxona to`lovlarisiz va h.k.) istalgan joyda safar qilishi dam olishi va boshqa turistik faoliyati bilan mashg`ul bo`lishidir. Mahalliy turizm bilan xalqaro turizm bir biri bilan chambarchas bog`liq holda rivojlanib boradi, ammo, mahalliy turizmda joylashuv, transport (ko`pchilik o`z shaxsiy avtomobillarida sayohat qilishini hisobga olib) va boshqa muammolar ancha oson kechadi.

Mahalliy turizmning mintaqasiz (Markaziy Osiyo) uchun eng muhim jihati sayohatga tanlangan sayyohlik marshruti bilan birgalikda diniy qadamjolarga ziyorat qilishi hamda qarindosh urug` va do'stlarni ko`rish mumkin. Mahalliy turistik ob`ektlarni o`rganish orqali kishilarning malakaviy dunyoqarashi oshadi hamda vatanga muhabbat uyg`otadi, shuningdek, aholini sog`lomlashtirish, shu qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xalqaro turizm- bu bir davlatdan boshqa davlatga uyushtiriladigan sayohatdir. Xalqaro turizm ma`lum maqsadda uyushtiriladigan marshrut yo`nalishi asosida guruh yoki yakka tartibda kechishi mumkin. Bunda eng avvalo sayyohlar shu davlatning o`ziga xos bo`lgan tarixiy obida va shaharlari, madaniyati, sanoati, urf-odati bilan tanishish hamda boshqa betakror turistik ob`ektlardan zavq olishdan iboratdir. Shuningdek, ilmiy anjumalar, konfrensiya, madaniy aloqalar, diniy marosimlar ( masalan, haj safariga borish) bilan ham chambarchas bog`liqdir. Xalqaro turizm juda qadimdan rivojlanib kelgan. Chunki qadimgi davrda mamlakatlar o`rtasida aniq chegaralar bo`lmaganligi, bir davlatdan ikkinchi davlatga, shahardan shaharga borish hech qanday qiyinchiliklar tug`dirmagan. Ayni vaqtda shu davlatning joriy etilgan tartib qoidalarga rioya qilinganligi uchun savdo-sotiq, madaniyat, san`at va fanning dunyo miqyosida yoyilishida turizmning ahamiyati katta bo`lgan. **Kasbiy sayohat**-qadimdan rivojlangan bo`lib, hozirgi paytda ham bu sayohat ananaviy va faol hisoblanadi. Kasbiy, jumladan, ilmiy sayyohlik olimlar ilm namoyondalari va boshqa kasb egalari tomonidan biror hudud mintaqaning tarixiy, arxeologik joylarini tekshirish, aholi etnografiyasi, madaniyati va san`atini o`rganish, hamda ilmiy anjumanlar hamkorligi, ilmiy ishlarni bajarish, malaka oshirish yuzasidan qilgan safarlarini turizm bilan aloqadorligidir. **Sog`lomlashtirish**, sog`liqni tiklash turizmi bevosita rekreatsiya turizmi bilan bog`liq bo`lib, kishilarning mehnat ta`tili vaqtida o`z salomatligini va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan faoliyatdir. Sanatoriya sog`lomlashtirish rekreatsiya majmuiga kurort deyiladi."Kurort" so`zi nemis tilidan olingan bo`lib, "davolanadigan joy" ma`nosini anglatadi.**Diniy turizm** xalqlarning o`z diniga

bo'lgan hurmati va e'tiqodi nuqtai nazaridan muqaddas qadamjolar, shaharlar, qabriston va aziz sanalgan maskanlarga ziyorat qilishidir.

Sport turizmi—sport o'yinlarga, musobaqalar o'tkaziladigan mintaqalarga yoki mamlakatga sportchilar bilan birgalikda muxlislarning tashrifi demakdir. Qayd etish joizki, hozirgi paytda turizmning bu tarmog'i katta daromad manbai sifatida tez o'sib bormoqda.

Tanishuv—turizmi keng keng qamrovli bo'lib, sayyohlikning barcha tarmoqlari bilan bog'liq. Turizmning bu tarmog'ida sayohat paytida sayyoh yangi joylar bilan tanishishi, ko'rishi bilan manaviy zavq oladi. Shuning uchun yuqoridagi turizmning funksional turlaridan birgalikda asosan bu tarmoqning bevosita ishtirok etishi xarakterlidir.

Turizm geografiyasi predmetiga olimlar turlicha ta'rif beradi. Masalan, Yerdamitov fikricha, turizm geografiyasi hududlar xo'jaligining majmuasi shakllanishi mintaqalarning xo'jalik majmualari shakllanishi mintaqalarning xo'jalik faoliyatini turizm nuqtai nazaridan o'rganishdan iborat deb ta'riflaydi. Binobarin V.V. Rodomon (1971) fikricha, geograflar vazifasi shundan iboratki, ular hududlar imkoniyatlarini aniqlab, rekreatsiya resurslarini kartalashtirish, samarali kartalashtirish, go'zal landshaftlarni rekreatsiya maqsadida muhofaza qilish yo'llarini ishlab chiqish, rekreatsiya geografiyasining maqsadi deb qaraydi. Shunday qilib turizm geografiyasi iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning bir bo'lagi bo'lib, u turli mamlakat va mintaqalarni sayyohlikning shakllanish, rivojlanish va hududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o'rganadi. Turizm geografiyasining hududiy harakat ob'ektida, ya'ni yer yuzasining turli tomonlarga geografik marshrutlar uyushtirish asosida vujudga keladi. Bu esa mintaqada xizmat ko'rsatish geografiyasini tashkil etish va rivojlantirishga ham sababchi bo'lgan. Turizmning rivoji o'z navbatida jamiyat ishlab chiqarishining o'sishiga, uning tizimlarini yaxshilashga, iqtisodiyotning turizmga to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lgan sohalarida ham mehnat unumdorligini oshirishga ko'maklashadi. Shuningdek, turistik iste'mol bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantiradi,

noturistik tarmoqlar uchun qo'shimcha bozor ochadi va bu bevosita ishlab chiqarishni rivojlantirishga olib keladi (Komilova 2001). Demak, turizm sohasida qo'shimcha xizmatlarning paydo bo'lishi, ya'ni turistlarni joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmatlarini tashkil etish, qo'shimcha xizmatlarni amalga oshirishga, ya'ni ish joylarini vujudga keltirishga imkoniyat yaratadi. Buning uchun, bizningcha mintaqaning xo'jaligi, aholisi, uning soni, tarkibi va boshqa sohalarini rivojlantirishda o'ni beqiyosdir.

Modomiki, barcha odamlar bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanar ekan, turizm geografiyasi ham ko'plab tabiiy gumanitar fanlar bilan jumladan, rekreatsiya geografiyasi, tibbiyot geografiyasi, landshaftshunoslik, o'lkashunoslik, mamlakatshunoslik va iqtisodiyot, tarix, etnografiya, huquqshunoslik va boshqalar bilan bog'liq holda taraqqiy etadi. Turizm geografiyasi o'z tadqiqot doirasida ayniqsa rekreatsiya geografiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Sababi har qanday turistik sayohat davomida kishilar ma'lum darajada dam oladilar, o'z kuch quvvatini tiklaydilar. Ayni vaqtda rekreatsiya, ya'ni dam olish, davolanish paytida albatta vaqti-vaqti bilan turli sayyohlik tadbirlarini o'tkazadilar, marshrutlarga chiqadlar. Shu jihatdan bu ikki tarmoq chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib turadi.

1.3. Turizmda maxsus turlarni shakllantirish

Turizmning maxsus turlari haqida Respublikamizda birinchi so'zni aytgan va bu turlarning dastlabki ro'yxatini tuzgan M.T.Aliyeva hisoblanadi. M.T.Aliyeva turizmdagi maxsus turlarni quyidagicha qayd qilgan;

1. Madaniyatga qiziqish turizmi;
2. Tabiatga qiziqish turizmi;
3. Qishloq turizmi;
4. Fermerlar hayoti turizmi;
5. Piyoda va velosipedda harakatlanish turizmi;
6. Ixtisoslashgan motivlardagi turizm;
7. Etnik turizm;

8. Diniy ziyoratgoh turizmi;
9. Kasbiy faoliyat turizmi;
10. Sog`inish turizmi;
11. Sarguzasht turizmi;
12. Ekologik turizm;

Turizmdagi maxsus turlarni aniqlashda M.T.Aliyevaning “kichik ko`lamli, noan`anaviy turlar” ta`rifi asosiy mezon qilib olingan. Turizm resurslarini ro`yxatga olishda va ma`lum bir ob`ektning turizm resursi bo`la olishligi o`rganilgandan keyin bu ob`ektga yoki tabiiy makonga yoki ishlab chiqarish sohasiga “turizm” so`zini qo`yish bilan hal qilinmaydi. Masalan; “hunarmandchilik sohasini” hunarmandchilik turizmi kabilar. Ishlab chiqarish resurslarini turizm resurslariga aylantirishdagi dastlabki talablar mamlakatda ichki va tashqi turistlarni birinchi navbatda qiziqтира oladigan soha yoki ob`ektga o`rganish to`g`ri bo`ladi deb hisoblaymiz. O`rganiladigan ob`ekt oddiyeste`molda emasligi xalqimizning o`ziga xos bo`lgan bejirim buyumlarining boshqa davlatlarda ishlab chiqarilmasligi, urf-odatlarining milliyligi yoki milliy o`yinlarni boshqa davlatlardagi xalqlar hayotiga umuman yo`qligi milliy san`atkorlik ijodlarini mujassam bo`lishi birinchi navbatdagi chet ellik turistlarni jalb qiladi. Bunday ob`ektlarga masalan hunarmandchilik, yoki ustachilikni olganimizda dastlab dunyoning barcha davlatlarida yashayotgan xalqlarning ham o`ziga xos milliy hunarmandchilik va milliy ustachilik sohalari albatta bor. Biz ishlab chiqarishdagi milliy hunarmandchilik yoki ustachilik sohalari buyumlarining noyobligi go`zal bejirimligi, mustahkamligi bu buyumlarni san`atkorlikning, kishilarni hayratga soladigan ijod namunalarining ko`pligidan, boshqa davlatlarni xuddi shunday buyumlar mahsulotlaridan ancha ustunligiga e`tibor berishimiz lozim bo`ladi.

Masalan kashtachilikdagi ikki yo`nalishning oddiy kashtachilik va zardo`zli kashtachilikning boshqa davlatlarda yashayotgan xalqlarning kashtachiligidan keladigan ustunligi shundan iboratki, so`ngi vaqtlarda O`zbekistonda kelib ketadigan davlat rahbarlari bosh vazirlar, mashhur adiblarga halqaro miqyosdagi

taniqli rahbarlar, sport va san`at yulduzlariga maxsus marosimlarga zardo`zli to`n va do`ppi kiydirilmoqda. Ikkala buyum ham faqat O`zbekistonliklar uchun milliy buyum xillari hisoblanadi. E`tibor qilsak qozoq, qirg`iz, turkmanistonliklarning ham to`nlari, do`ppilari, o`zlarining milliyligini ko`rsatib turadi.

Binobarin, Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishlari deyarli bir, yashash manzillarining yaqin qo`shni ekanligidan bizdagi do`ppi va zardo`zli to`n tikish ularda ham bo`lishi mumkin edi. Lekin qadimiy tub joy aholining buyumlar yaratishdagi milliy urf-odatlarini xush ko`rishlari nuqtai nazaridan Markaziy Osiyo xalqlarida qayd qilingan ikkala buyumni tikishda turli uslub, tanlash va yo`nalish hosil bo`lgan. Demak, bizdagi milliy do`ppichilik va zardo`zi to`n tikish qo`shni davlatlarda rivojlangan emas, dunyoning boshqa birorta mamlakatlarida bizdagidek usullar yo`q hisoblanadi. Bu xulosalardan milliy qo`l hunarmandchiligimizdagi do`ppichilik va zardo`zi to`n tikishini xalqaro turizm ob`ekti- resurs sanoati maxsus turlar ro`yxatiga qo`ysa bo`ladi.

Xalqimizning milliy o`yinlaridan turizm sohasida foydalanishning juda katta imkoniyatlari borligini ilg`ash qiyin emas. Masalan, qushlarni urushtirish o`yini yoki musobaqasi dunyoning juda ko`p mamlakatlarida bor. Bizda qushlarning xo`roz urushtirish va bedana urushtirish o`yinlari bor. Bu qushlarni urushtirish musobaqasi O`zbekiston Respublikasida juda ommalashgan. Xo`roz urushtirishning jahon birinchiligi ham o`tkaziladi. Endi ichki turizmda bu o`yinlar hozir ham shaharlar, tumanlarning bozor maydonlarida o`tkaziladi. Xalqaro turizmda bu urushtirish o`yinlari ommaviylashmaydi. Chet ellarda juda kam sonli ishqibozlar bu o`yinlarga qiziqib kelishi mumkin. Bozorlarda asosan vaqti bor va to`satdan nigohi tushgan bozorga kelgan kishilar bu o`yinlarni tomosha qilishadi. Bu o`yindan turizm maqsadida foydalansa ham kichik ko`lamli, noan`anaviy tur bo`lib qolaveradi. Bu o`yinlarni turizmga jalb qilishning eng zarur tomoni shundan iboratki, ichki turizm ham tashqi xalqaro turizm ham qayd qilingan ikki turdan yo`l-yo`lakay turistlarning ko`ngilochar o`yinlarni dam olishni xohlagan vaqtlarida foydalanish turistlarga taklif qilish mumkin. Albatta bunday taklif xizmatlari pullik

bo'ladi. Turizmdagi maxsus turlarni aniqlash va ro'yxatga olish, kuzatish ustaxonalarda hunarmandlar va ustalarning faoliyat va ishlab chiqargan buyumlarini tomosha qilib shunday xulosa qilish mumkinki, turizmda foydalanish uchun ro'yxatga olayotgan turlardan ichki turizm, ekskursiya-tanishuv turizmi, xalqaro turizm, esa qo'shimcha tur manbalarisifatida (turistga taklif qilish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, suratga yoki videoga olish va hokazolar) foydalanish mumkin.

1.4. Turizm maxsus turlarining tasnifi

Tasniflash har qanday sohaga muhim to'liq ma'lumotlar beruvchi sohari va jinni rivojlantirishda asosiy manba bo'luvchi jadval muhim ma'lumotnomadir. Tasniflashda o'rganilayotgan sohaning barcha jihatlari, xilma-xilliklari ma'lumotlari bo'lishi lozim. Maxsus turizm turlarining ro'yxatini tuzishda ba'zi bir turlar ma'lumotlarini yo'qligi tufayli qolib ketish mumkin. Bunday turlar aniqlanib to'liq tavsif ta'rif berilgandan keyin turizmdagi o'rni, talabga javob berishi belgilangandan keyin tasnifga qo'shimcha qilib kiritiladi. Turizmdagi maxsus turlar hozircha turizm turlari emas. Biz turizmda maxsus turlar bo'lishi mumkinligini hisobga olib, madaniyat sohalari, hunarmandchilik, milliy o'yinlar va ishlab chiqarish sohalari nomlanishiga turizm so'zini qo'shib turizmdagi maxsus turlar ro'yxatini tasnifini keltirishga harakat qildik.

Milliy madaniyatga qiziqish turizmi. Xalqimizning urf-odatlar, tildagi shevalar, oilahayoti, kattalar va yoshlar munosabatlari, salomlashishi, mehmon kutish va mehmondorchilik, to'y va diniy marosimlar, oila bayramlari, oiladagi huquqlar, kelin va sunnat to'ylari, uy tutish va hokazolarga qiziqish.

Agroturizm. Qishloqlarning turli-tumanligi va tabiiy-tarixiy davrda yuzaga kelishi, qishloq aholisi, hayoti, fermerlar hayoti va faoliyatiga qiziqish.

Etnik va sog'inish turizmi. Xalqlar, ellar, urug'lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlar, kelib chiqish tarixi, joylashishi, o'zaro aloqalari,

xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dunyo bo`ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog`inish qo`msashdagi ichki va xalqaro turizm.

**Milliy san`at turizmi.** Milliy san`at, milliy folklor, qo`shiqchilik, milliy raqslar, askiyalar, laparlar, aytishuvlar, rassomchilik va haykaltaroshlik, baxshilar, o`lan aytish, qo`shiqchilik kabi san`at turlariga qiziqish. Bu tur quyidagi yo`nalishlarga bo`linadi:

Qo`shiqchilik va raqs san`ati yo`nalishlari.

- baxshilar qo`shiqchiligi maktablari;
- askiyalar, laparlar, aytishuvlarga qiziqish;
- milliy rassomchilik va haykaltaroshlik.

Tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmi. Tabiat muzeylari va tabiat haykallari, tog` qoya toshlaridagi qadimiy rasmlar, o`lkashunoslik va milliy xalq hayoti tarixiy muzeylariga qiziqish. Bu tur ham quyidagi yo`nalishlarni o`z tarkibiga oladi.

- tabiat muzeylari va tabiat haykallari;
- o`lkashunoslik muzeylari;
- milliy xalq hayoti tarixiy muzeylari;
- qoyatoshlardagi qadimiy rasmlar;
- hayvonot bog`lari.

Milliy hunarmandchilik turizmi. Milliy hunarmandchilik turlari, milliy hunarmandchilikdagi yo`nalishlar, xalq-me`mor, xalq-usta shoiri va reklamasi, milliy hunarmandchilik buyumlarining mo`jizadorligiga qiziqish. Bu turizm turi quyidagi tarmoqlarga bo`linib ketadi:

- duradgorlik va uning maktablari;
- kulolchilik va uning maktablari;
- kashtachilik, zardo`zlik, milliy liboslar, do`ppi, to`n, belbog`lar tikishdagi yo`nalishlar;

- milliy ustachilik;
- temirchilik;
- misgarlik;
- musiqqa sozlash;
- beshiksozlik;
- aravasoqlik;
- sandalsoqlik;
- sandiqsoqlik;
- egarsoqlik;
- maxsido`zlik;
- gilamchilik va polos to`qish;

**Milliy o`yinlar turizmi.** Markaziy Osiyo xalqlarida milliy o`yinlar nomini olgan o`ziga xos musobaqalari, mardlik, jasurlikni namoyish qiluvchi bellashuvlar va dunyo xalqlarida ko`plab uchraydigan hayvonlar va parrandalarni urushtirishga qiziqish. Bu tur quyidagi yo`nalishlardan iborat:

- ko`pkari-uloq;
- milliy kurash;
- qo`chqor urushtirish;
- xo`roz urushtirish;
- bedana urushtirish;
- dorbozlik;

**G`orshunoslik turizmi.** O`lkamizdagi tarixiy g`orlar, g`orlar haqida ma`lumotlar, tarixiy shaxslar hayoti bilan bog`liq g`orlar paleontologik g`orlar, g`orlardan o`tmishda va hozirda foydalanish, yer osti karerlariga qiziqish.

Sirk turizmi. Sirkdagi mashhur kishilar-san`atkorlar, sehergarlar, chiponozchilar va hayvonot turlari ishtirokidagi o`yin dasturlariga qiziqish.

Agroturizm. Mamlakatimizdagi asosiy ekinlar, milliy gulchilik, o'simliklar seleksiyasi, qishloqdagi dehqonchilik, polizchilik, meva-sabzavotchilik, bahorgi va sug'orma dehqonchilikka qiziqish.

Xalqaro polvonlar bellashuvi turizmi. Vatanimizda xalq polvonlari o'yinlari va xalqaro polvonlarning bellashuviga qiziqish.

Hayot uchun xavfli sport o'yinlari turizmi. Bu turlar asosan xorij mamlakatlarida rivojlanib bormoqda. Hayot uchun xavfli sport o'yinlari turizmdagi ba'zi bir turlar faqat bir nechta davlatlarda rivojlangan (masalan, asov otni jilovlash Portugaliyada, asov ho'kiz (buqa)ni jilovlash Ispaniyada) bo'lib, turizm mavsumiy, bu hayot uchun xavfli, o'yinlarni mehmonlar, turistlarhayajon, qo'rquv va qiziqish bilan tomosha qiladilar. Bu turlar ba'zida ekstremal turizm turlari deb ham atashadi.

Beys Jamping-baland qoya va binolardan parashutda sakrash;

Xelisning- chang'idavertolyotdan qorli tik qoyaga sakrash;

Dayving-suv ostiga sho'ng'ish;

Keyv-rayding-suv osti g'orlariga sayohat;

Pull-Rayding- asov ho'kizni (buqani) jilovlash;

Korrido-asov otni jilovlash;

Syoroding-okean, dengizning shiddatli, baland to'lqinlaridan taxta chang'ida suzib o'tish;

Skalazing-tik qoyalarga, baland binolarga himoyasiz, arqonsiz va asboblarsiz chiqish;

Motokross-velosipeddan yonayotgan ob'ektlar ustidan sakrab o'tish;

Velokrose-velosipedda havoda mashqlar bajarish, noqulay joylarga chiqish va tushish;

Dorbozlik-himoyasiz va shartli himoyada baland bino, baland qoya va keng suv havzalariga tortilgan arqondan yurib o'tish;

Niagara-baland sersuv sharsharalardan (bochka ichida, maxsus kiyimda va h.k.) balanddan suv bilan pastga tushish;

Koinot-kosmik kemada kosmonavtlar bilan fazoga borib kelish;

Rolli-Parij shahridan Afrika sahrolari orqali avtomobillarda, motosikllarda Dakar shahrigacha bo'lgan sport tirikchiligi;

Zaharli ilonlar, chayonlar orasida o'tirish, ilon o'ynatish;

Keltirilgan maxsus turlar tasnifidan ma'lum bo'ldiki, O'zbekistonda turizmning maxsus-“kichik ko'lamli, noan'anaviy” turlarini “katta ko'lamli an'anaviy” turlarga aylantirishda juda katta turistik salohiyati bor ekan. Keltirilgan 12 ta maxsus turlardan 11 turini turizmga shakllantirish mumkin. Bu turlar ham ko'p qirraligi va ko'p variantlilik jihatidan o'ziga xos, betakror ijodiy yaratuvchanlik yo'nalishlarga, tarmoqlarga bo'linib ketadi.

1.5. Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi aniq manzillar bo'yicha aniqlanmagan. Maxsus turlarni hosil qiluvchi ishlab chiqarish sohalari, milliy o'yinlar va hokazolar hozirgacha aniq manzillar bo'yicha ro'yxatga olinmagan. Samarqand shahridagi o'lkashunoslik va O'zbekiston xalqlari tarixiy muzeyidan ham O'zbekistonda hunarmandchilik rivojlangan tumanlar, yoki milliy folklor guruhlar, zardo'zlik yoki milliy o'yinlarning aniq geografik manzillari topilmadi. Shuning uchun ham turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi asosan so'rov, savdo-tijoratdagi axborotlar, og'zaki hikoyalar, ko'p yillik ekskursiyalarda yuruvchilarning axborotlari va hayotiy kuzatuvlari asosida tuziladi.

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi. 1-jadval.

№	Turizmdagi maxsus turlar.	Turizmga qiziqish foydalanish ob'ekti.	Ommaviy rivojlangan, joylashgan tumanlar.
1.	Milliy madaniyatga qiziqish turizmi	Urf-odatlar, oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlar munosabati, uy tutish, kelin to'y, sunnat to'yi, mehmon kutish va mehmondorchilik marosimlari	O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari shaharlari, tumanlari, qishloqlari.

2.	Qishloq va fermer hayoti turizmi	Qishloqlarning turli tumanligi va tabiiy-tarixiy davrga yuzaga kelishi, qishloq aholisi hayoti, fermerlar hayoti va faoliyati	Respublikamiz hududlaridagi qishloqlar, tog'dagi qishloqlar, suv havzalaridagi qishloqlarga qiziqish.
3.	Etnik va sog'inish turizmi	Xalqlar, ellar, urug'lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlarini, kelib chiqishi tarixiy joylashishi, o'zaro aloqalari. Xalqlarning millatlarning har xil sabablar bilan dunyo bo'ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog'inish	O'zbekiston va dunyo mamlakatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi va qo'shni M.O. davlatlari.
4.	Sarguzasht turizmi	Tabiiy mintaqalarga, uzoq yurtlarga, ellarga, tog'larga reja asosida piyoda yoki transportda yo'lga chiqish	O'zbekistonda rivojlantirishga qiziqish juda kam.
5.	Milliy san'at turizmi	Milliy san'at, qo'shiqchilik, raqs, rassomchilik, baxshilar hayoti, askiyalar, laparlar, milliy folklor.	O'zbekiston Respublikasining hududlarida
5.1.	Qo'shiqchilik	5.1.Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro, Qoraq. A.R.
		5.1.2.Samarqand usuli	O'rta Zarafshon vodiysi
			Farg'ona vodiysi.
			Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari.
5.2.	Qo'shiqchilikda baxshilar faoliyati.	5.2.2.Zarafshon-Nurota usuli.	Samarqand va Navoiy viloyatlari.
		5.2.3. Xorazm usuli.	Xorazm, Buxoro viloyatlari.
		5.3.2.Qoraqalpog'cha usuli.	Qoraqalpog'iston.
	5.3. Raqqoslik	5.3.3 Buxorocha usul.	Buxoro viloyati, Tojikiston Respublikasi.
		5.3.4. Farg'onacha usul.	Farg'ona viloyati, Toshkent viloyati.
	5.4. Askiyalar va aytishuvlar	5.4.1.Askiyalar.	Farg'ona vodiysi.
		5.4.2. Aytishuvlar.	Qoraqalpog'iston, Xorazm.
	5.5. Milliy rassomchilik va haykaltaroshlik.	5.5.2.Haykaltaroshlik.	Samarqand shahri, Toshkent shahri.
	5.6.Milliy folklorlar san'ati.	5.6.1."Boysun" folklorlari	Surxondaryo viloyati Boysun tumani
		5.6.2."Lazgi" folklorlari.	Xorazm viloyati.
		5.6.3."Beshqarsak" folklorlari.	Samarqand viloyati Urgut tumani.
		5.6.4"Oyguloyim" folklorlari.	Qoraqalpog'iston.
6.	Tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmi.	6.1.1. Sharsharalar.	"Arslonbobo"-Farg'ona.
6.1	Tabiat muzeylari.	6.1.2. Qadimiy buloqlar.	"Baxmal", "Forish", "G'allaorol" tumanlarida.

			Jizzax viloyati, Nurobod tumani, Navoiy viloyati va h.k.
6.2	Qayotoshlardagi qadimiy rasmlar.	6.2.1. Tabiat haykallari, rasmlar.	Urgut tumani, Nurobod tumani, Samarqand viloyati, G`allaorol tumani, Navoiy viloyati.
	6.3. Hayvonot bog`lari.	6.3.1. Noyob hayvonlar yashash tarzi.	Toshkent shahri, Termiz shahri.
	6.4. O`lkashunoslik muzeylari.	6.4.1. Dunyo tabiatidagi hayvon va parrandalar tabiati.	Viloyat markazi shaharlari.
7.	Milliy hunarmandchilik turizmi.	7.1.1. Yog`ochga o`yib shakl berish.	Xorazm usuli, Urgut usuli, Samarqand usuli, Buxoro usuli, Farg`ona usuli.
		7.1.2. Sovg`alar, shkatulkalar.	Buxoro usuli, Samarqand usuli.
	7.1. Duradgorlik va uning maktablari.	7.2.1. Sopol buyumlar yasash.	Xorazm usuli, Buxoro usuli, Samarqand usuli, Farg`ona usuli
	7.2. Kulolchilik va uning maktablari.	7.3.1. Matoga rangli gul solish.	Buxoro usuli, Samarqand usuli, Jizzax usuli, cho`lliklar usuli,
		7.3.2. Zardo`zi kashtachilik.	Urgut usuli, Samarqand usuli, Buxoro usuli, Farg`ona usuli,
	7.3. Kashtachilik.	7.4.1. Milliy do`ppi.	Farg`onacha, Namanganacha, Buxoroacha, Xorazmcha, Qashqadaryoacha.
		7.4.2. Milliy to`n.	Xorazm viloyati, Surxondaryo viloyati, Toshkent viloyati, Farg`ona viloyati, Jizzax viloyati,
		7.4.3. Atlas va beqasam buyumlar.	Marg`ilon shahri.
		7.4.4. Baxmal buyumlar.	Samarqand shahri.
	7.4. Milliy liboslar.	7.5.1. Temirchilik, qadimiy asboblari.	Respublikadagi tumanlar.
		7.5.2. Misgarlik.	Samarqand, Buxoro, Xorazm, Xiva.
		7.5.3. Musiqasozlik.	Samarqand, Xorazm, Farg`ona vodiysi.
		7.5.4. Beshiksozlik.	Samarqand, Buxoro, Farg`ona vodiysi, Urgut.
		7.5.5. Aravasozi.	Qo`qon.
		7.5.6. Sandiqsozlik.	Urgut, Samarqand, Buxoro, Farg`ona vodiysi.
		7.5.7. Egarsozlik.	Baxmal tumani, Jizzax viloyati, Qashqadaryo vodiysi.
		7.5.8. Maxsido`zlik	Namangan.
		7.5.9. Gilamchilik.	Xorazm viloyati, Jizzax viloyati, Nurota tumani, Navoiy viloyati.

		7.5.10. Polos to`qish.	Cho`l xalqi, Jizzax va Navoiy viloyati.
8.	Milliy o`yinlar turizmi. 8.1.Ko`pkari-uloq.	8.1.Chavandoz ot ustidagi tortishuvda marraga uloq olib borish-ko`pkari	Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy.
9.	Milli kurash.	8.2.Polvonlar milliy kurashi.	Buxoro viloyati, Surxondaryo viloyati, Qashqadaryo viloyati,
10.	8.3.Qo`chqor urushtirish.	8.3.Qo`chqor urushtirish musobaqasi.	Xorazm, Buxoro, Qoraqalpog`iston viloyatlarida.
11.	8.4.Xo`roz urushtirish.	8.4.Xo`rozlar jangi tomoshasi.	Samarqand shahri, Buxoro shahri, Farg`ona vodiysi shaharlari.
12.	8.5. Bedana urushtirish.	8.5.Bedanalar jangi tomoshasi.	Samarqand, Buxoro, Farg`ona vodiysidagi shaharlar.
13.	8.6.Dorbozlik.	8.6.Baland tortilgan arqondan yurish va o`yin ko`rsatish.	Toshkent viloyati, Farg`ona viloyati,
14.	G`orshunoslik turizmi.	9.Tabiatdagi yer osti karerlariga sayohat. 9.1.Amir Temur g`origa qiziqish.	O`zbekiston hududidagi g`orlar. Qashqadaryo viloyati.
15.	Agroturizm.	10.Xalqimizning dehqonchilik usullariga qiziqish (xalqaro turizm uchun).	O`zbekistonning sug`oriladigan yerli hududlarida.
16.	Xalqaro polvonlar bellashuvi turizmi.	Xorij mamlakatlarida.	Xorij mamlakatlari.
17.	Hayot uchun xavfli sport o`yinlari turizmi.	Xorij mamlakatlarida.	Xorij mamlakatlarida.

Maxsus turlarning geografiyasini o`rganishdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi.

1. Turizmdagi maxsus turlarning respublikamizning barcha hududlarning manzillari bor.

2. Respublikamizdagi maxsus turlarning aksariyat turlari shaharlarda va tumanlarda joylashgan. Ayniqsa Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Shahrisabz shaharlarida boshqa xalqlarda mamlakatlarda uchramaydigan mo`jizaviy insonni hayratga soladigan, sovg`apob va umumiy foydalanishga juda zarur bo`lgan osori-atika buyumlar, qadimiy asbob-uskunalar ishlab chiqaradiki, ichki va xalqaro turizmga bunday imkoniyatlardan hozirgacha foydalanilmay kelinayotganligining o`zi afsuslanarli holdir.

3. Turizmdagi maxsus turlardan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva va Shahrisabz shaharlarida majmualari foydalanishning tashkiliy jihatlari tezkor usullarda ishlab chiqarilishi kerak. Ma'lumki, xalqaro turistlar oqimi qayd qilingan shaharlarda kuzatilmoqda. Bu turistlar asosan tarixiy va madaniy obidalar va ziyoratgoh joylarga tashrif qilmoqdalar. Ana shu turistlarni ushbu shaharlardagi maxsus turizm turlariga taklif qilish, qiziqtirish usullarini qo'llash vaqti keldi.

4. Turizmdagi maxsus turlarning hunarmandchilik, ustachilik markazlari shaharlarda joylashganligi uchun shahardagi talabalar, kollej va akademik litsey o'quvchilarini imtiyozli ekskursiya usulida olib kelish kerak. Bu ichki turizmning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Turizmdagi maxsus turlardagi milliy o'yinlarimizni turistik firmalar yoki turistik tashkilotlar tashkil qilishga also hojat yo'q. Bu o'yinlarni xalqimiz yilning mavsumlarida o'zlari doimo tashkil qilmoqdalar. Turizm sohasidagi mutaxasislarning vazifasi turistlarni bu milliy o'yinlarga taklif qilishdan iborat.

1.6. Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish yo'llari

Prezidentimiz I.A.Karimov vatanimizning turistik salohiyatining imkoniyatlarining kattaligini hisobga olib, 2006-yil 17-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini qabul qildi. Turizmdagi maxsus turlarning tavsifi, tasnifi va geografiyasi bilan tanishganimizdan so'ng turizmda foydalanishda bu turlar deyarli tayyor holatda ekanligini ko'ramiz. Bu holatda maxsus turlarda foydalanishda birinchi navbatdagi vazifa maxsus turlardan foydalanishga xizmatlar ko'rsatishning tashkil qilish va ishlab chiqishi hisoblanadi:

-turizmdagi maxsus turlarning rivojlantirishning birinchi navbatdagi vazifasi bu turlar haqida reklama mahsulotlari respublikamizning barcha mehmonxonalarida, turistik firmalar va turistik tashkilotlarda ko'p nusxada bo'lishligini ta'minlash.

-respublikamizda turizmning maxsus turlarini rivojlantirish uchun jahon talablariga mos keladigan, ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslangan, kutiladigan natijalarni rivojlantirish bo'yicha turli muddatlarga mo'ljallangan grant loyihalar va biznes rejalar ishlab chiqishni amalga oshirishni boshlash lozim.

-turizmdagi maxsus turlardan foydalanish, bu turlarga ichki va tashqi turistik oqimni amalda hosil qiladigan "Maxsus turizm bo'limlari" ni "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasining viloyatlardagi filiallarini ochish bu turlardan foydalanishdagi muammolar yechimini qisqa fursatlarda topishga mustahkam zamin yaratadi.

-turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish tadbirkorlik faoliyatlariga keng yo'l, imkoniyatlarini ochib berish. Shu jumladan reklama maqsadida turizmning maxsus turlari haqida maqola, buklet, varaqa, plakat-reklamalar rangli ma'lumotlarni katta tirajlarda chop etish, tarqatish maqsadli bo'ladi.

Turizmdagi maxsus turlarni jahon talablariga mos keladigan moddiy-texnik axborot-ma'lumotlar bazasini yaratish, xizmatlar ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish eng muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

1.7. Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish

Turizmni ommaviy rivojlantirish uchun katta salohiyat va imkoniyatga ega bo'lgan turizmning maxsus turlarning istiqboldagi o'rnini belgilash uchun albatta tashkiliyharakat dasturini turizm soha uchun zaruriy, majburiy talab ekanligini hozirdanoq anglamog'imiz lozim. Bizningcha turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish quyidagi reja "Dastur" asosida bajarilsa to'g'ri bo'ladi.

Bosqichlar	Bosqichda bajariladigan ishlar	Muddati
I-bosqich	1.1 O'zbekistonda turizmdagi maxsus turlarning to'liq ro'yxatini tuzish, tavsif vata'riflarini yaratish, bu turlarning geografik manzillarini aniqlash.	2009-2010-yillar
	1.2 Respublikamizda turizmning maxsus turlaridan foydalanishning huquqiy qonuniy me'yorlarini ishlab chiqish	2009-2010-yillar
II-bosqich	2.1. Turizmdagi maxsus turlari resurslariga, ob'ektlariga, manzillariga qiymatijihatidan I-II-III darajali turistik marshrutlar tiklab berish va reklamalarni turizm bozoriga chiqarish.	2010-yillarda
	2.2 Turizmdagi maxsus turlardan foydalanishda turga taklif qilinadigan turistik xizmatlar paketini yaratish va tashkil qilish, bu sohada xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish	2010-yillarda
III-bosqich	3.1. O'zbekistonda turizmning maxsus turlaridan ichki turizmga foydalanishni ommaviy ravishda boshlash va targ'ibot ishlarini kuchli darajadagi reja bo'yicha olib borish.	2009-2010-yillarda
	3.2. Turizmdagi maxsus turlar resurslarida, ob'ektlarida, manzillarida biznesni rivojlantirish uchun qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va turistik infratuzilmalarni hosil qilish.	
IV-bosqich	4.1. O'zbekistonda turizmdagi maxsus turlaridan xalqaro miqyosda foydalanishni boshlash.	2010-yillardan keyingi yillarda
	4.2. Turizmdagi maxsus turlarning jahon talablariga mos keladigan moddiy-texnik, axborot-ma'lumotlar bazasini yaratish, jahon andozalariga mos keladigan xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirib borish.	

1.7. Turizmdagi maxsus turlarga turistik marshrutlar ishlab chiqish

Inson ko'rib, eshitib yuradigan har qanday mo'jizaviy inshootlar, tabiatning so'lim go'shalari, qadimiy obidalar, daryolar, sharsharalar, hayvonot yoki turli-tuman o'simliklar o'sadigan joylar, tomosha bog'larining hammasida ma'lum bir

yoʻldan boriladi. Bu yoʻl turizmida “marshrut” deb ataladi. Oʻzbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat miqyosida, rahbarligida olib borilayotgan barcha chora-dadbirlarning birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur boʻlgani turistik marshrutlar ishlab chiqishdir. Turistik resurs-obʼekt (qoʻriqxonalar, tarixiy-madaniy obida, arxeologik topilmalar va hokazolar)ga turist zerikmasdan boradigan va mazmunli dam olish yoki qoniqish olgandan keyin, asta-sekinlik bilan turistlar oqimini oʻziga jalb qila boshlaydi. Turistik marshrut qayd qilingan, kutilmagan “taklif”larning bajarilishi yoki “xizmatlar” majmuasi aʼlo darajada kafolatlanish uchun ham “turistik marshrut” deyiladi. Turizmdagi maxsus turlar uchun turistik marshrutdagi xizmatlar koʻrsatish talabi boʻyicha ikki guruhga boʻlishimiz mumkin. 1-guruh: Alohida turistik marshrutni talab qilmaydigan turizmning maxsus turlari. 2-guruh: Alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qiladigan turizmning maxsus turlari. Turizmdagi maxsus turlar geografiyasidan (2-jadval) maʼlumki hozircha Oʻzbekistonda turizmning maxsus turlarining 11 turi roʻyxatga olingan. Bu turlar ham jami 51 tarmoqqa, koʻrinishlarga boʻlinib ketgan. **Birinchi guruhda** turgan maxsus turlarning alohida turistik marshrutlar ishlab chiqish talab qilmasligining sababi bu turlar resurslari-obʼektlari asosan shaharlar, tuman markazlarida joylashgan. **Birinchi guruh:** Alohida turistik marshrutlarni talab qilmaydigan turizmning maxsus turlari:

- 1.1. Milliy madaniyatga qiziqish turizmi.
- 1.2. Etnik va sogʻinish turizmi
- 1.3. Milliy sanʼat turizmi
- 1.4. Milliy hunarmandchilik turizmi
- 1.5. Milliy ustachilik turizmi

Ikkinchi guruhga kiritilgan maxsus turlarning “alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qilish”ning bosh sababi bu turlarning shahar va tumanlar markazlaridan uzoqda joylashganligidir. Turistik resurs-obʼektga borgan turist uchun bunday joylardagi birinchi muammo dam olish va tunash joylari va bu joylarda koʻrsatiladigan xizmatlar boʻlib qoladi. Milliy oʻyinlar turizmi”- bilan

kelgan turist albatta qishloqlardagi aholining milliy o`yinlarini tomoshasiga qiziqqanligi uchun boradi. Masalan, ko`pkari-uloq o`yini, qo`chqor urushtirish tomoshalarini asosan Respublikamizning qishloqlarida yashovchi aholi o`zlarining sunnat to`ylarida xalq bayramlari (Navro`z, hosil bayrami va h.k.) da tashkil qiladi. Qishloq va fermerlar hayoti turizmida turist qishloq aholisi yoki fermer bilan birga ishlashi mumkin. Chet davlatlarida bu turdan foydalanish shunday yo`lga qo`yilgan. G`orshunoslik va tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmni shakllantirishda albatta turistik marshrutlar ishlab chiqiladi. Qayd qilingan mulohazalardan keyin 2-guruh quyidagicha to`ldirilishi mumkin. **Ikkinchi guruh:** Alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qiladigan turizmning maxsus turlari

2.1. Qishloq va fermerlar hayoti turizmi.

2.2 Tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmi.

2.3. Milliy o`yinlar turizmi.

2.4. G`orshunoslik turizmi.

2.5. Agroturizm.

Ikkinchi guruhdagi turizmning maxsus turlari turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qilar ekan, bu ishda turistik marshrutlar ishlab chiqishning asosiy tamoyillaridan foydalanish maqsadli bo`ladi. Bu tamoyillar turizmning barcha turlari uchun turistik marshrutlar ishlab chiqishda qo`llaniladi.

II BOB. JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNING MAXSUS TURLARI

2.1. Jizzax viloyati tabiati, aholisi, xo`jaligining umumiy xususiyatlari

Jizzax viloyati O`zbekiston Respublikasi tarkibida dastlab 29-dekabr 1973-yilda tashkil etilgan va u 6-sentabr 1988-yilda qo`shni viloyatlar tarkibiga kiritilgan. Hozirgi holatda esa Jizzax viloyati 16-fevral 1990-yilda qayta tiklangan. Viloyat o`zining maydoniga ko`ra, mamlakatimizda o`rta mavqeni egallaydi. (respublikada 13 ta ma`muriy mitaqlarning har birida o`rtacha 34.5 ming kv.km yer to`g`ri keladi). Uning hududi 21.2 ming kv.km. bo`lib, bu borada Surxondaryo viloyati bilan deyarli tengdosh hisoblanadi. O`zbekistonda nisbatan viloyat maydoni 4.7 foizga barobar holda bu yerda, 2000-yil dastlabki ma`lumotlarga qaraganda 1123 ming yoki mamlakatimizning 4.0 foiz aholisi yashaydi. Bu ikki nisbiy raqamlarning qiyosiy tahlili Jizzax viloyatida aholi joylashuvi respublika o`rtacha ko`rsatkichidan biroz pastligidan guvohlik beradi. Darhaqiqat, viloyat aholisining zichligi 1 km. kv. ga 53 kishi, mamlakatimizda esa 62 kishi. Mamuriy jihatdan Jizzax viloyati 12 ta qishloq tumanidan iborat. Ularning eng kattasi Forish tumani hisoblanadi (9.8 ming km.kv yoki viloyat hududining 46.2%), eng kichik maydon esa Zafarobod tumanida qayd etiladi (0.33 ming kv.km). Jizzax viloyati mamlakat hududiy mehnat taqsimotida paxta, poliz, g`alla va bog`dorchilik mahsulotlarini yetishtirish, chorvachilikning jun va go`sht yo`nalishlari bilan ajralib turadi. Sanoatida tog`-kon, yengil va oziq-ovqat tarmoqlari respublika ahamiyatiga ega.

**Geografik o`rni va tabiiy resurs salohiyati.** Jizzax viloyati O`zbekiston Respublikasining markaziy qismida joylashganligi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Shu bilan birga mintaqaning geosiyosiy o`rni ham o`ziga xos: viloyat shimolida Qozog`iston, janubi-sharqida Tojikiston respublikasi bilan chegaradosh. Ko`rinib turibdiki, Jizzax viloyati geografik o`rnining “markaziyligi” va transchegaraviyligi uning tarixiy, iqtisodiy va siyosiy

rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, Jizzax shahrining O'rta Osiyoning qadimiy markazlari Samarqand, Toshkent, Xo'jand va O'ratepa oralig'ida Buyuk Ipak yo'lida o'rnashganligi ham hozirgi viloyat markazi shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini belgilab beradi. Hududning shimoliy, shimoli-g'arb va janubiy qismlari tog'liklardan, o'rta qismi tekisliklardan iborat. Bu yerda Nurota, Pistamtog', Turkiston, G'obdintov tog'lari bor; eng baland cho'qqilari Bozorxonim (3401 m Baxmal tumanida) va Shavkattov (4029 m, Zomin tumanining chekka janubida). Tog' va tog' oldi hududlarida Nurotatog'-yong'oq, Zomin tog'-archa davlat qo'riqxonalari hamda Zomin xalq bog'i tashkil etilgan. Viloyatning har xil landshaft turlariga boyligi tabiiy holda hududiy mehnat taqsimotining rivojlanishida asosiy omil bo'lgan va shunga mos holda tabiiy-xo'jalik tarmoqlari shakllangan. Tog' va tog' oldi hududlarida chorvachilik, bog'dorchilik, asalarichilik, lalmikor dehqonchilik, rekreatsiya va turizm rivojlangan, tekislik qismi esa eski yangi o'zlashtirilgan, ko'proq paxta ekiladigan hududlardan iborat. Mintaqada turli xil qadimiy boyliklar ham bor. Ular jumlasiga oltin, folfram, qo'rg'oshin, rux, molibden, ohak, granit, marmar kabilar kiradi. Qo'ytoshning volfram, Marjonbuloqning oltin, Uchquloqning qo'rg'oshin-rux konlari sanoat ahamiyatiga ega. Iqlimi kontinental, asosiy gidrografik shahobchasi Sangzor daryosi bo'lib, u sug'orma dehqonchilikda foydalaniladi. Shimolda joylashgan Aydarko'l va Arnasoy ko'llari baliqchilikni rivojlantirishda imkon beradi. Turkiston, Nurota, Pistalitog', G'o'bdin kabi tog' tizmalari o'ziga xos landshaft turlarini shakllantirgan. 1976-yilda Zomin tumanida 50 ming gektarni egallagan milliy bog' (park) tashkil etilgan. Shu hududda Zomin qo'riqxonasi ham mavjud. Umuman olganda, Zomin, Baxmal, G'allaorol, Forish tumanlarida rekreatsiya resurslari ko'p va bu yerda ekoturizm uchun ham sharoit qulay. Ushbu hududlarning yozi nisbatan salqinroq, namgarchilik esa tabiiy holda lalmikor dehqonchilikni xususan bug'doy yetishtirishda qulaylik yaratadi.

Aholisi va mehnat resurslari geografiyasi. Viloyat aholisi 2010-yil ma'lumotiga binoan 1123 ming kishi, uning yarmidan ko'prog'i, ya'ni 52 %i qishloq joylarga to'g'ri keladi. Viloyat aholisining o'sish surati ham respublika

o`rtacha darajasi atrofida. Viloyat aholisi 2001-2010-yillar oralig`ida 1.13 % ga o`sgan holda, o`rtacha bir yillik ko`payishi 1.40 % gat eng bo`lgan. Demografik xususiyatlar o`z navbatida aholining tabiiy hamda mexanik harakati tufayli yuzaga kelgan. Viloyatda tug`ulish va tabiiy ko`payishi ko`rsatkichlari yuqori. 2009-yilda viloyat aholisining tabiiy ko`payishi 22.9 ming kishidan iborat bo`lgan. Aholisining migratsiya qoldig`i esa minus 3786 kishi. Shu yilda tashqaridan ko`chib kelganlar 6618 kishi, ko`chib kelganlar 10404 kishi (Viloyat statistika boshqarmasi ma`lumotlari). Har ming kishiga hisoblaganda, tug`ilish viloyat bo`yicha 273 kishini, vafot etganlar 4.4 kishini tashkil qiladi.

Viloyatda 2009-yilda urbanizatsiya darajasi 47 %. (Respublikada 51.7 %), bir yil oldin ya`ni 2008-yilda esa u 29.2 % bo`lgan. Aholi 6 ta shahar 43 ta shaharchalarda istiqomlat qiladi. "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili " Davlat dasturining ijrosiga binoan viloyatda 34 ta qishloq aholisi punkitlariga shaharcha maqomi berilgan. Jumladan Jizzax tumanida ularning soni 7 ta: Jizzaxli, Gandushtosh, Qorayantoq, Tokchilik, Mulkanlik, Qanli, Uchtepa; Baxmal tumanida 6 ta; Mug`ol, Novqa-1, Alamli, Tongortar, Oqtosh hamda Baxmal; G`allaorolda 4 ta Abdulkarim, Lalmikor, Chuvilloq, Qangli-1. Qolgan tumanlarda bunday shaharchalar ozroq. Paxtakor va Do`stlik tumanlarida esa atigi bittadan (Gulzor va Navro`z). Jizzax viloyatida 524 ta qishloq aholi punkitlari bor, yangi shaharchalar paydo bo`lganligi sababli qolgan qishloqlar yanada maydalashgan; har bir qishloqda o`rtacha 1107 kishi to`g`ri keladi. 2010-yil ma`lumotlariga ko`ra, viloyatda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi 614.1 ming kishi, iqtisodiy faol aholi 387.7 ming, iqtisodiyotda band aholi 370.8 ming kishi. Band bo`lgan aholining 2/3 qismi moddiy ishlab chiqarish sohasiga mansub. Sanoatda band bo`lganlar ulushi- 7.8 %, qurilishda-6.7 %, savdo, umumiy ovqatlanish sohalarida 8.0 %, transport va aloqada 2.4 %. Iqtisodiyotda band bo`lganlarning eng katta qismi qishloq va o`rmon xo`jaligida qayd etilgan. (35.7 %).

**Xo`jaligi.** Jizzax viloyati o`zining mintaqaviy iqtisodiy tuzilmasiga ko`ra rivojlanib borayotgan agrar-industrial hudud hisoblanadi. Uning hissasiga

respublika yalpi ichki mahsuloti qiymatining 2.5 %i sanoat ishlab chiqarishning 1.1%, xalq iste'mol mollarining 1.5, qishloq xo'jalik mollarining 5.4, investitsiya hajmining 1.8, qurilish ishlarining 2.5, savdo aylanmasi va pullik xizmatlarning 2.5, eksportning 0.6 va importning 0.3 % i to'g'ri keladi. Viloyatning yalpi hududiy mahsuloti tarkibi esa quyidagicha (2009); sanoat ishlab chiqarish 6.5 %, qurilish 8.0%, qishloq xo'jaligi 39.7 %, transport va aloqa 6.4 %, savdo va umumiy ovqatlanish 5.4 %, soliqlar 5.9 % va boshqa sohalar 10.9 %. Kichik biznes yalpi hududiy mahsulotning 73.8 foizini ta'minlagan bo'lib, bu sohada iqtisodiyotda jami band bo'lganlarning 77.8 % xizmat qiladi. Uning hissasiga 99.9 % qishloq xo'jalik mahsuloti, 89.7 qurilish, 49.7 % savdo, 48.0 % pullik xizmatlar, 45.4 % asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va 37.4 % sanoat mahsuloti to'g'ri keladi. Kichik biznesni asosiy qismi xususiy tadbirkorlik faoliyatidan iborat.

Sanoati. Viloyatda jami sanoat korxonalarining soni 673 ta, shu jumladan yirik sanoat korxonalari 15 ta. Bu makroiqtisodiy sohada 9.1 ming kishi ishlaydi. Tarmoqlar tarkibida yengil va oziq-ovqat sanoati yetakchilik qiladi. Mazkur tarmoq viloyat yalpi sanoat mahsulotlarining 70.6 % ini beradi. 2009-yilda 71.1 ming tonna paxta tolasi, 112.2 ming chigit, 7.7 ming tonna o'simlik yog'i, 52.1 ming t. un, 36.9 ming t. omuxta esa, 183 ming dona akkumulatorlar. Shuningdek, 201.4 ming t. go'sht va go'sht mahsulotlari, 24.4 ming t. sut, 550 tonna boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ham olingan. Tog'-kon sanoati Qo'ytosh (volfram, molibden), Marjonbuloq (oltin), Uchquloch (qo'rg'oshin, rux) va boshqa resurs shaharlarida tashkil etilgan. Xalq iste'mol mollarining 408 %i birgina viloyat markazi-Jizzax shahriga to'g'ri keladi. Qishloq tumanlari orasida Do'stlik, Jizzax, G'allaorol, Baxmal va Zomin tumanlari ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligi. Turli tarmoqlarga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi Jizzax viloyati iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Mintaqa paxta, chorvachilik, bog'dorchilik, lalmikor dehqonchilik, asalarichilik, kartoshka, sabzavot, poliz mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Dehqonchilik 48.5 va chorvachilik 51.5 % dan qishloq xo'jalik mahsulotlarini beradi. Bu nisbat ob-havo,

iqlimi sharoitlari hamda mamlakatimizning agrar siyosati ta'sirida o'zgarib turadi. 2008-yil ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda jami qishloq xojaligida foydalanadigan yerlar 1168.4 ming gektarga teng bo'lgan. Uning 23.6 % i sug'oriladigan yerlardan iborat. Bu shuni ko'rsatadiki, viloyatda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlari bir muncha cheklangan. Sug'oriladigan yerlar ulushi ayniqsa tog' va tog' oldi hududlarida joylashgan Forish, Zomin, Baxmal, G'allaorol, Yangiobod qishloq tumanlarida. Viloyat qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 41.1 % ekinmaydonlari bilan, 57.1 %i pichanzor va yaylovlar bilan band. Pichanzor va yaylovlar Baxmal, Zomin, Forish, Yangiobod kabi tog' va tog'oldi hududlarida joylashgan qishloq tumanlarida, jami ekiladigan yerlar esa pasttekislik hududlarida (Arnasoy, Do'stlik, Paxtakor, Zarbdor, va boshqalar) ko'p. 2009-yil ma'lumotlari bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlarining umumiy maydoni 372.5 ming gektarni tashkil qiladi. Jami qishloq xo'jalik mahsulotlarining 62.2 % i dehqon xo'jaligida, 37.0 % i fermer xo'jaligida to'g'ri keladi. Dehqon xo'jaliklarining ulushi xususan chorvachilikda, bog'dorchilik, kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirishda ko'proq. Fermer xo'jaliklari esa asosan paxtachilikda rivojlangan. Fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan yer maydoni 457.7 ming ga, ularda ishlaydiganlar 61.6 ming kishi, har bir fermer xo'jaligida band bo'lganlarda o'rtacha 7.4 gektardan yer to'g'ri keladi.

2009-yil yakunlari bo'yicha barcha donli ekinlar maydoni 198.4 ming ga, uning 191.5 ming ga boshqoli don ekinlari bilanband. Shu jumladan, 120.5 ming ga yerga bug'doy ekilgan, umumiy hosil 411.6 ming t, hosildorlik 34.2 s. Paxta maydonlari 101.9 ming ga, yalpi hosil 224.0 ming t. hosildorlik 22.0 s/ga. Kartoshka 1.3 gektarga, sabzavot 9.1 ming gektarga, poliz 6.8 ming gektarga ekilgan. Yalpi hosil mos holda 33.4: 203.2: 143.6 ming tonnani tashkil qilgan. Bog'dorchilik esa 11.0 ming gektarni tashkil etilgan, yalpi hosil 50.2 ming t. (asosan olma), hosildorlik 62.4 s/ga. Viloyat qishloq xo'jaligida 2009-yilda tirik vaznda 116.9 ming t go'sht, 314.5 ming t sut, 97.4 ming dona tuxum, 76 tonna jun, 24.2 ming dona qorako'l terisi 588.3 ming tonna pilla yetishtirilgan. Yirik shoxli qoramollarboshqa toifadagi xo'jaliklarda 571.6 ming bosh (ko'pchiligi

dehqon xo'jaliklarida), qo'y va echkilar 1310 ming bosh, otlar 18.7 ming bosh bo'lgan.

Investitsiya, transport va tashqi iqtisodiy aloqalar. 2009-yilda viloyat asosiy kapitaliga 230194 mln. So'm hajmida investitsiyalar kiritildi. Uning 22.8 % i respublika byujetidan, 4.4 foizi korxonalar va aholi mablag'lari hisobidan, 8.1 % i esa xorijiy mamlakatlarning investitsiyalari va kreditlariga to'g'ri keladi. Jami investitsiyalarning 2/5 qismi ishlab chiqarish tarmoqlari (sanoatga 14.1 %, qishloq xo'jaligida 16.3 %, 59.0 foizi noishlab chiqarish sohalariga, 28.2 % ta'limga, 21.6 % uy-joy qurilishiga) yo'naltirilgan. Albatta bu quyilmalar kelajakda o'z samarasini beradi. Xorijiy investitsiyalar yordamida 53 ta qo'shni korxonalar tashkil etilgan, ularning 44 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. 2008-yilda 39 ta faoliyat ko'rsatgan qo'shma korxonalar viloyat yalpi mahsulotining 19.7 %, eksportning 7.8 % ni ta'minlagan. Ularda jami 1910 kishi ishagan, import hajmi 14813 ming AQSH dollariga teng bo'lgan. Jizzax viloyatining transport geografik o'rni qulay. Bu yerdan katta o'zbek trakti, elektrlashtirilgan temir yo'l o'tgan. Viloyat va uning markazi Jizzax shahri Toshkent, Samarqand, Bekobod shaharlari bilan aloqa qilish uchun qulay imkoniyatga ega. Tashqi iqtisodiy aloqalar, asosan Xitoy (33.6 % tashqi Tovar aylanmasi), Rossiya (17.6 %), Shvetsariya (11.7 %), Gonkong (8.3 %), Turkiya (8.2 %), Singapur (7.2) va boshqa davlatlar bilan olib boriladi. 2009-yilda viloyatning tashqi savdo aylanmasi 104.9 ming AQSH dollariga teng bo'lgan holda, eksport 732 va import 31.7 mln. dollarni tashkil qilgan. Eksport tarkibida paxta tolasi 81.6 %, oziq-ovqat mahsulotlari 10.8 % o'rinlariga ega. Import tarkibida esa mashina va uskunalar 35.6 %, kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar 32.4 %, oziq-ovqat mahsulotlari 7.4 % ni tashkil qilgan.

2.2. Jizzax viloyatida turizmning maxsus turlarini tashkil etish

Jizzax viloyatida turizmning maxsus turlarini quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ko'rish mumkin.

N	Turizmning maxsus turlari	Turizmda qiziqish foydalanish ob'ekti	Ommaviy rivojlangan, joylashgan tumanlar.
1.	Milliy madaniyatga qiziqish turimi	Urf-odatlar, oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlar munosabati, uy tutish, kelin to'y, sunnat to'yi, mehmon kutishva mehmondorchilik marosimlari.	O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari,tumanlari va qishloqlari.
2.	Qishloq va fermer hayoti turizmi.	Qishloqlarning turli tumanligi va tabiiy-tarixiy davrga yuzaga kelishi, qishloq aholisi hayoti, fermerlar hayoti va faoliyati.	Respublikamiz hududlaridagi qishloqlar, tog'dagi qishloqlar,suv havzalaridagi qishloqlarga qiziqish.
3.	Qadimgi tabiat yodgorliklari turizmi	1.Sharsharalar. 2.Karst buloqlar. 3.Tabiat go'shalari. 4.tabiat haykallari, rasmlari.	Zomin, Baxmal,G'allaorol tumanlari. Baxmal,G'allaorol tumanlari.
4.	Milliy hunarmandchilik turizmi.	Matoga rangli gul solish.	Jizzax usuli.
5.	Kashtachilik 2. Milliy liboslar	Milliy to'n. Egarsozlik.	Jizzax viloyati. Baxmal tumani.
6.	3.Milliy ustachilik. 4.Gilamchilik.	Gilam va polos to'qish. 6.1.Chavandoz ot ustida tortishuvga marraga uloq olib boorish, ko'pkari.	Jizzax viloyati. G'allaorol, Baxmal, Jizzax, Forish,Zomin tumanlari.
7.	Milliy o'yinlar turizmi. G'orshunoslik turizmi. Ekoturizm.	Amir Temur darvozasidagi g'or. Qo'riqxona va milliy bog'larga sayohat.	G'allaorol tumani. Zomin, Forish tumanlari.

Ishda Jizzax viloyatida turizmning yuqorida ko'rsatilgan maxsus turlariga tasnif beriladi.

2.2.1. Milliy madaniyatga qiziqish turizmi

Turizmning ushbu turiga xalqimizning qadimdan tarkib topgan urf-odatlar, oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlar munosabati, uy tutish, kelin to'yi, sunnat to'yi, mehmon kutish va mehmondorchilik munosabatlari bilan xorijiy turistlar tanishish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Jizzax viloyatida istiqomat

qiluvchi xalqlarning urf-odatlarini respublikamizning boshqa hududlarida yashovchi xalqlar urf-odatlariga o'xshash. Chunki ushbu hududda yashovchi aholi qadimdan respublikamiz boshqa hududlarida yashovchi xalqlar bilan bordi-keldi qilganlar. O'zlarida shakllangan urf-odatlarini boshqa hududlarda yashovchi aholining urf-odatlarini bilan to'ldirilgan. Ana shunday urf-odatlardan biri mehmondorchilik hisoblanadi. O'zbek xalqiga mehmondorchilik odati keng tarqalgan udumlardanidir. Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida shakllangan mehmondorchilik odati hayotiy zaruratlar bilan bog'liq bo'lgan va tarixning turli bosqichlaridan o'tib hozirga qadar yetib kelgan. Ma'lum sabablar bilan tarqalib ketga urug'-aymoqlar bir-birlarini axtarib topgach, ular ulug' mehmon tarzida izzat-ikrom va bilan kutib olingan. Bora-bora mehmondorchilik xalqlarning udumiga aylangan, mehmonga nafaqat urug'doshlar va qarindoshlar, hatto begona kishilar, musofir yo'lovchilar ham qabul qilingan. Mahalla va qishloq jamoalari xonadonlarida mehmonni kutish uchun maxsus xonalar mehmonxona qurilgan. Odat bo'yicha mehmon mehmonxonada qabul qilingan. Mehmonxonasi bo'lmagan xonadon uni yashab turgan uyida kutgan. Xonadonga kelgan mehmonni, qavm-qarindoshni kattalar bilan bolalar ham birgalikda chiqib kutib olgan. Mehmon odatda mehmonxonaning yoki uyni to'rida o'tkaziladi. To'kin dasturxon yozilib, non va choy keltiriladi. Keyinroq taom pishirilib tortiladi. Mehmon ketar vaqtda uning oti yoki ot-aravani yo'lga hozirlagan va otga minishiga yordam berilgan: bolalar mehmon bilan kattalar qatorida xayrlashgan.

O'zbekcha mehmondorchilik taomidan yana biri mehmon kishining xonadoniga kelishidan qat'iy nazar uni zudlik bilan ko'rishishga oshiqqanlar. Chunki mehmon, ayni vaqtda qishloq va mahalla jamoasining ham mehmoni hisoblanadi. Mehmonni navbati bilan boshqa xonadon sohiblari ham uylariga taklif qilish odati bo'lgan. Ulug' mehmon oyog'i tagida poyonдоз to'shab, ba'zan qo'y so'yibkutib olingan. Ziyofatda qo'shnilar, mahalladoshlar yoki oqsoqollari hurmatli kishilar taklif etilgan. Mehmonni kuzatish oldidan sarpo kiydirish odat ham bo'lgan. O'zbek xalqining mehmondorchilik taomillari ajdodlardan avlodlarga o'tib, hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Kattalarni hurmat qilish o'zbek xonadoni

umuminsoniy qadriyatlardan bo`lib, bolaga juda yoshligidan boshlab o`rgatilgan. Yoshi katta kishining ishiga yordamlashish odat va odob hisoblangan. Jamoa yetakchisining yoki olia boshlig`ining qarori olia va jamoa manfaatlariga mos kelganligi uchun uni bajarish shart hisoblangan. Qariyalar ayni vaqtda o`tmishdan meros bo`lib kelayotgan va kundalik hayot uchun zarur bilimlarni xususan, o`tmishdan meros bo`lib qolgan tomoni (urf-odat) larni yoshlarga o`rgatganlar. Bolalar nafaqat ota-onalarining, balki qishloq yoki mahalla jamoasi kattalarining ham diqqat e`tiborida bo`lgan. Yoshlar ayni jamoaga milliy meros va urf-odatlarni yoshlarga o`rgatganlar. O`zbek xalqining hayotida mavjud bo`lgan tartib va qoidalar xalq an`analariga hamda islom dini va shariat qoidalari asosida yuzaga kelgan, albatta odob qoidalariga rioya qilish oiladan boshlangan. Yoz paytlarida ayniqsa, barvaqt turilgan. Bolalar bet qo`llarini yuvib kattalarga salom bergan. Kattalar ayniqsa, mehmonlar qo`liga suv quyilgan.

Dasturxon oilaning ko`rki, to`yimlik ramzi hisoblangan. Uning atrofiga yig`ilib o`tirish ham ma`lum odob doirasida bo`lgan. Dasturxonga hurmat bajo keltirish odobga aylangan. Dasturxon “Bismilloh” bilan ochilib, yaratganga shukrona aytilib, o`tganlar haqqiga duo fотиha qilib, tiriklarga sihat-salomatlik, dasturxonga qut-baraka, elu-yurtga tinchlik va farovonlik tilab yig`ishtirilgan. O`zbeklarga yerni haydash, uni ekishga tayyorlash, suv keltirish, zamin bag`riga yetishtirilgan hosilni tig`ishtirib olish savob, dehqonchilik eng sharaflı mashg`ulot hisoblanadi. Ayniqsa dehqonchilik mavsumining boshlanishi o`ziga xos tantana tarzda nishonlanib, Respublikamizning qator mintaqalarida bahorgi shudgor oldidan “is chiqarish” marosimi o`tkazilgan. Har bir oilada ayollar bo`g`irsoq, cho`zma pishirishgan. Qozonga yog` yaxshi qizitilib, so`ngra unga xamir tashlangan. Yerni haydashdan oldin ho`kizlarning shoxlari va bo`yin turig`ini yog` bilan moylashgan. Ho`kizlarni yomon ko`zdan asrasindeb tumor taqilgan. Dastlabki egat olish yoki urug` sepish oila yoki qishloqdagi hurmatli keksalar boshlab berishgan. Bahor faslidagi bayram va sayillardan tashqari kuz mavsumidagi to`kin-sokinlik bilan bog`liq bayram va sayillar ham mavjud. Shulardan biri Hosil bayrami. Bu bayram ham o`zbek xalqining qadimgi

tantanalaridan hisoblanadi. Bayram kunlari (2-3 kun) dehqonlar yetishtirgan mahsulotlarni sayil joylariga olib kelib sotishgan. Bayram sayilgohlarida shahar hunarmand-kosiblari ham o'z mahsulotlarini olib chiqib musobaqa uyushtirishgan. Hosil bayrami va u bilan bog'liq marosimlar bir muncha o'zgarishlar bilan hozirga qadar yetib kelgan. Har yili dala va bog'larda yetishtirilgan hosil yig'ib olingandan keyin qishloq jamoalari ma'lum kunlari hosil bayrami deb e'lon qilinadi. Bu kunlar yetishtirilgan mahsulotlar belgilangan joylarga (yarmarkalarga) keltirilib sotiladi. O'zbeklarda ham boshqa xalqlar singari inson hayoti ibtidosidan intiqosigacha turli-tuman marosimlar bilan birlashgan. Insoniyat hayotining muhim burilish nuqtalari bilan bog'liq tarzda o'tkaziladigan tadbirlar oilaviy marosimlar deb ataladi.

Aqiqa. O'zbek oilalarida yangi tug'ilgan bolaga ism qo'yish va "qorin sochi" (bolaning tug'ulgandagi sochi) ga qaysi urish bilan bog'liq odat. Islom an'anasiga ko'ra, odatda chaqaloq 7 yosh 14 yoxud 21 kunligida o'tkazish tavsiya etiladi. O'zbek xalqiga qadimdan saqlanib kelinayotgan yana bir marosim Xatna qilish (o'g'il to'yi) dir. Bu marosim ham uzoq tarixiy davrlar bilan bog'liq bo'lib, u insoniyat tarixining ilk davrlaridagi o'g'il bolalarni bir yosh bosqichdan ikkinchisiga o'tishini maxsus marosim tarzda nishonlash bilan bog'liqdir. Bunday odatlar keyinroq islom dini tarqalgan mamlakatlarda udumga aylangan. Bu marosim o'g'il bolalarda 3,5,10 yoshda, ayrim hollarda 11,12 yoshda o'tkazilgan.

2.2.2. Qishloq va fermerlar hayoti turizmi

Jizzax viloyati tabiiy sharoiti turli tuman hisoblanadi. O'lkaning shimoliy qismini Mirzacho'lning janubiy qismi egallaydi. Bu hudud XX asrning 60-70 yillaridan boshlab o'zlashtirila boshladi. O'zlashtirilgan joylarda asosan sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Shu sababli viloyatning shimoliy qismida asosan paxta, don, poliz mahsulotlarning yetishtirish bilan bog'liq fermer xo'jaliklari rivojlangan. Viloyatning janubiy qismida joylashgan Forish, Zomin, G'allaorol va Baxmal tumanlarida fermer xo'jaliklari lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, kartoshka yetishtirish, cho'l yaylov chorvachiligi, qoramolchilik

bilan shug'ullanishadi. Xorijlik turistlar uchun viloyatning turli hududlarida mavjud fermerlar hayoti bilan tanishish, ularning mahsulot yetishtirish texnologiyalari bilan tanishish katta qiziqish uyg'otadi. Bundan tashqari Jizzax viloyatining tog'li hududlari hisoblanmish Baxmal va Zomin tumanlarida yilqichilik ham rivojlangan. Bu yerda yashovchi mahalliy aholi yilqi sutidan qimiz tayyorlaydi. Qimiz juda ko'p kasalliklarda davo hisoblanadi. Shuning uchun chet ellik turistlar uchun qimiz tayyorlash texnologiyasi bilan tanishish juda katta qiziqish uyg'otadi.

2.2.3. Qadimgi tabiat yodgorliklari turizmi

Jizzax viloyatida xorijiy turistlar uchun juda katta qiziqish uyg'otadigan turizmning maxsus turlaridan biri tabiatning noyob yodgorliklariga sayohat hisoblanadi. Bularga qadimgi odam shaklidagi tosh qotgan haykallar, qo'y shaklidagi toshlar, sharsharalar, karst buloqlarlari, tabiatning so'lim go'shalari va karst buloqlarini ko'rsatish mumkin. Ana shulardan biri Oyqor hisoblanadi. Tadqiqotchi M.Hoshimovning (2009-yil) takidlashicha: "Oyqor" cho'qqisining nomi "oy" va "qor" so'zlarining qo'shilishidan kelib chiqqan bo'lib, u Sangsoz daryosining yuqori qismidagi Turkiston tog'ining bir qismi bo'lgan Chumqortog'ning baland joyida joylashgan. Chumqortog'ning Oyqordan ham balandroq qismlari ko'p bo'lsada ular ichida Oyqor o'z go'zalligi bilan ajralib turadi. Oyqor umuman, mukammal va yodda qoladigandir. Uning gumbazsimon cho'qqisi nimasi bilandir so'ngan vulqona ko'rinishini eslatadi va uzoqdan ulkanligi bilan kishida taassurot qoldiradi. Cho'qqi xuddi ufq ustida o'zining tik yonbag'irlari bilan muallaq turgandek ko'rinadi.

Oyqor cho'qqisi yozning faqat ikki oydagina qor qoplamidan hosil bo'ladi. Bu davrda yonbag'irlarini qalin o'tlar va gullar bilan qoplaydi. Boshqa davrlarda, hattoki, saraton jaziramasi boshlangan davrda ham cho'qqisida qor bo'ladi. Oyli tunda qor qoplami o'zidan sehrli nur taratgandek bo'ladi. Shimolga qaragan tik yonbag'ri o'zgacha yorqin oy nurida cho'madi. Oyqorning dengiz sathidan 3200 metr, O'smat posyolkasidan 2500 m baland bo'lgan ulkan gavdali bunday tunlarda

oy nurida bulutdek yaltiraydi, ayniqsa, to`lin oy kechalarida go`zal nom bilan atalgan.

Xalq orasida bu afsonaviy toqqa atab ko`plab rivoyatlar, hikoyatlar to`qilgan va hatto qo`shiq qilib kuylangan. Afsonalardan biri tog` etadigadi tarixi uzoq asrlarga bog`langan. O`smat qishlog`i (hozir O`smat posyolkasi) nomining kelib chiqishiga izoh berilgan. Unga ko`ra bir vaqtlar tog` etaklaridagi aholi o`zidan kuchi bir necha marta oshiq bo`lgan Iskandar Zulqarnayn lashkarlariga qarshi kurashga kiradi. Jahongir bu joydan boy Ushrushona o`lkasiga o`tib o`tib ketayotgan edi. Lekin kam sonli vatan himoyachilari bir necha tunu kun mardonavor chang qilib, halok bo`lishdi. Faqatgina ozroq changchilar jasur boshliqlari Usmat boshchiligida dushman xalqasini yorib chiqadi va daraga kirishadi. Quvib kelayotgan dushman ko`z oldida ular oy nurida billurdek yaltirab turgan tog` yon bag`riga kirib g`oyib bo`lishadi. Dushman yaqinlashganda esa oy bulut orasiga yashinadi va yon`atrof zulmatga ko`miladi Keyinchalik aholi tog` orasiga kerib ketgan qahramon sharafiga qurilgan qishloqni uni nomi bilan Usmat deb atay boshlaydi. Albatta bu afsona, lekin, u go`zal joyga husn beruvchi yana bir qo`shimchadir. Lekin qadimgi yunon tarixchilarining ishlari shu tuman atrofida bosqinchilar bilan vatan himoyachilari o`rtasida bo`lib o`tgan bir jang haqida xotira bor. Iskandar Zulqarnay Ushrushona o`lkasiga borishda yo`lini qoyalari ustida chiqib olgan 30 ming qurollangan mahalliy aholi to`sadi. Shiddatli jangda Iskandar Zulqarnay birinchi marta tizzasidan yarador bo`ladi. Lekin kuchlar teng bo`lmaganligi sababli Vatan himoyachilardan ko`plari qoyalarga dushman o`qida halok bo`ladilar.

Shunisi qiziqki, tog`li Zarafshonning ko`p qismida Iskandar Zulqarnay nomi bilan bog`liq joylar ko`p bo`lsa ( masalan Iskandarko`l) Samarqanddan sharqda va Jizzax atrofida bunday nomlar yo`q. Bu esa, albatta, Iskandar Zulqarnayning Ushrusha aholisidan eng yomon taassurot qoldirgani uchun, ataylab xalq uning nomini unutgan bo`lsa kerak.

Oyqor hozirgi yozuvchilar o`rtasida ham mashhurdir. Uning haqida M. Shverdin va Nurali Qobil o`z kitoblarida ko`p eslashgan. Oyqorni o`tmish sayyohlari ham ko`p yozishgan. Faqat Oyqorning go`zalligini o`z ko`zi bilan sayyohgina uni ko`rgan va o`tmish sayyohlari u haqida kuylamasiligi mumkin emas. Hozirgi vaqtda Oyqor dam oluvchilar uchun ajoyib maskanlardanbo`lib, u yerda Jizzax, G`allaorol va ko`p joylardan aholi dam olish uchun chiqadi. Qishqa ham, yozda ham dam olish mumkin. Oyqir yonida qishlik chang`i sporti ba`zan tashkil qilinsa, u yerda 5 oy, ya`ni noyabrdan-martgacha foydalanish mumkin.

Agar tog` zonasi yaxshi o`rgnilib, yo`llar olinsa, tabiat va tarixiy yodg orliklari ta`minlansa sayohat maskanlari o`rganilib chiqilsa kelajakda Oyqor sayohat bo`yicha eng yaxshi mashhur joylardan biriga aylanadi.

Baxmal. Tabiatning maukammalligi, takrorlanmas go`zalligini dasht va tog` oldi mintaqasi orasida joylashgan va Turkiston tog`larining ikki tizmasi orasida turgan kichik tog` ichki zonasi Baxmalga tushganda bilamiz. Haqiqatga o`xshagan ertak “o`tmishda bu uurtlarga shohlar hukmronlik qilib, xalq nochor yashagan vaqtda Samarqand hukmronlaridan biri o`z elidagi barcha usta to`quvchilarni yig`ib, ularga qizining to`yida go`zal va beqioys so`zana tikishni buyuribdi.

Kun tun bilan almashib, ish qizib ketibdi, ustalar tinim bilmasdan mehnat qilibshibdi. Nihoyat kutilgan vaqt kelib, ustalar hukmdor qoshiga so`zanalarni keltiribshibdi.” Saroy amaldorlari har bir so`zana go`zalligini ko`rib, lol qolishar, faqat shohgina ular ishidan xursand emasdi. To`quvchilar esa bundan xavotirlanib, hukmron qahridan qo`rqishardi. Navbat yosh va hech kim tanimaydigan ustaga kelibdi. U eski chang bosgan kiyimiga qaraganda uzoqdan kelganga o`xshardi.

Shu vaqtda qadar u kamtarona chekkada turar va qo`ltig`ida qo`lbola bo`z tugunga o`ralgan yelgingina narsani qo`ltiq`lab olgandi. To`quvchi navbati kelgach, tugunni ochib, uni silkilab va tugundagi harir so`zana yashil rangli bulut shaklida suzib ketdi. Bu afsonaviy bulut yer yuziga ohista tushdi va saroyning marmar devorlarini chulg`ab oldi. U chulg`ab olgan hamma yoq firuzasimon yashil rangga

kirganda, havoda dala gullari hidi paydo bo`ldi, bahor gulari ochildi, tog`shabadasi paydo bo`ldi va qasr atroflari quyosh nurlari bilan yoritilgan yashil gilam bilan qoplandi. Barcha hayron va hayajonda qotib qoldi. Shohning o`zi ham uzoq vaqtgacha boron so`z aytaolmadi.

–Bu qanday mo`jiza ?- nihoyat so`radi u.

-Baxmal, -soddagina tushuntirdi to`quvchi .Bu mening vatanim jilosidir.

Shu vaqtdan boshlab kamalakning barcha ranglari bilan tovlanuvchi go`zal matolar Baxmal deb, atala boshlangan ekan.

Molguzar va Shumqortov orasida joylashgan Baxmal vodiysi haqida shunday go`zal afsona to`qilgan. Haqiqatan ham boshqa joylarda kishini Baxmaldagidek lol qoldiradigan go`zal tabiat manzaralarini ko`rmaysiz. Tog`larning va keng daryoning supasimon yonbag`irlari erta bahordan boshlab maysalar baxmal to`shovi bilan qoplanadi, yozda borib atrof oltindek bug`doyzorga burkanadi, ular o`rtasida bog`lar va o`rmonchalar halqalari qorayib ko`rinadi. Sal yuqoriroqda tog`lar yon bag`rida archazorlar hukmronlik qiladi, undan ham balandroqda esa alp o`tloqlari va qishki qorlar ko`rinib, ular cho`qqilar orasidagi chuqurliklarni egallab yotadi.

Tabiat uni Qizilqum va Mirzacho`lning jazirama issig`idan va tog`larning abadiy sovug`idan atayin himoya qilgandek, bu joylarda mehnat va dam olish uchun qulay iqlim yaratgandek. Baxmal atrofida ko`pgina ekskursiya ob`ektlar navqa va sadinvaqqos karst buloqlari va undagi baliqlar ko`p asrlik chinorlar va qayrag`ochlar, g`orlar, eski qasrlar xarobaralri, qadimiy qo`rg`onlar, machitlar, maqbaralar bo`lib, ularning ko`pligi tarixiy ahamiyatga ega.

Baxmal kelajakda respublika ahamiyatiga ega dam olish zonasiga aylanadi. Bu joyda yangi dam olish uylari va sanatoriyalar, sog`liqni tiklash bazalari va kempinglar, pansianatlar, bog`lar, dam olish oromgohlar, shu yerda tayyorlangan qimiz bilan davolovchi shifoxonalar qurishadi. Minglab kishilar bu joyda dam

olish kunlarini o'tkazadilar. Shu sababli, hozirdan ko'p narsalarni hisoblab chiqish, o'rganish, dam olish zonalarini loyihalashtirilayotganda daryolar tozaligini, o'simlik va hayvonot dunyosining sonini saqlab qolish chorasini ko'rish kerak.

Chor tangi. Zominsuv havzasida Chortangi (to'rt tor dara) deb atalgan joy bor. Bu ulkan dara uzunligi 10 kilometrga, chuqurligi 1000 metrga boradi va uchta ko'zga ko'rinarli bo'lmagan tog' daryolari- Qashqasuv, Qizilmozor va Ko'lsuv tomonidan yaratilgan. U uchala tog' daryosi bir ulkan daryoga aylanishidan oldin ulkan tog' orasidagi tekisli joydan kesib o'tadi. Bu tekilik ham aslida ichkariga qarab bukilgan va to'lqinsimon relyefga ega. Bu joyning ancha qismi g'ovak va yosh tog' jinslaridan tashkil topgan. Bular asosan toshlar, qumlar, qizil rangli konglomeratlardan tashkil topgan. Bu qatlamlar qadimiy tekislik ustida joylashib, uning yoshi 200 milliondan yildan kam emas. Qizilmozor qishlog'idan shimolroqda bu tekislik unga katta bo'lmagan burchak ostida yer yuzasiga chiqadi, keyinesa deyarli 2 kilometrga yaqin enarlik hosil qilib, Zominsuv darasida tugaydi. Qachonlardir yer osti kuchlari bu yerdagi paleozoy plitasini ko'targan va natijada nurash jarayonlari aktivlashgan. Qashqasuv, Qizilmozor va Ko'ksuv uni uchta dara shaklida kesib o'tgan. Kesib o'tish jarayonida ular har xil qattiqlikdagi tog' jinslari ustidagi o'tgan va sharsharalar hosil qilgan. Keyin bu uch dara birlashgan va juda ulkan to'rtinchi daraga aylangan, uning pastida o'tgan zamonlardan beri ma'lum bo'lgan kichkina qishloq joylashgan.

Qirq qizlar. Turkiston va Molguzar tog'lari tutashgan xushmanzara joyda Guralash qo'riqxonasi joylashgan. Bu yerdagi tog' yonbag'rida bo'yi 10 metrga yetadigan odam davrasiga o'zshash ikkita tog' uchraydi. Ulardan bir necha metr narida esa, bir qator qilib tuzilgan, qirqqa yaqin tosh shakllari bor. Bu mashhur Qirq qizdir. Afsonalarga ko'ra bir vaqtlar bu yerda qudratlilikda tengi yo'q mashhur bir shoh hukmronlik qilgan. U sevimli malikasi uchun tog'lar orasidagi eng go'zal joydan hashamatli qasr qurdiradi va o'z malikasi yoniga tez-tez kelib turadi. Malikaning go'zalligi el orasida keng tarqalgan edi. Qo'shni mamlakatlar shohi malikaga oshiq bolib qoladi va uni qo'lga tushirish paytiga tushadi.

Kunlarning bir kuni shohning bir o'zi malika yoniga kelg ndan xabar topgan qo'shni mamlakat podshosi qo'shin tortib keladi va qasrni o'rab oladi. Kuchlar teng bo'lmagan jang boshlanadi. Shoh, malika va qirq kanizak mardonavor jang qiladilar. Lekin, ular yengiladilar. G'olb shoh, malikani talab qiladi. Shunda bir-birini sevgan shoh va malika ey patvardigor judolik alamini torttirgandan ko'ra, yaxshisi toshga aylantir deb iltijo qiladilar. Bu nola ijobat bo'lib, hammasi toshga aylanadi. Bu bir go'zal afsona, albatta haqiqatda esa bu ilmiy adabiyotlarda yer piramidalari, deb ataluvchi va morena tuz yotqiziqlarida ko'p uchrovchi nurashning bir xili xolos. Qadimgi davrlarda bo'lib o'tgan kuchli muz siljishlaridan keyin bu joylarga ko'plab loy, qum, shag'al va xarsang toshlar aralash yotqiziqlar qoldig'i ular yillar mobaynida yuvilaverib har xil shakllar paydo bo'ladi. Million yillar muqaddam Qirq qiz o'rnida tog' muzliklar mavjud bo'lib, ular siljiganda har xil yotqiziqlarni ham surib kelgan. Ular erigandan keyin yerda qum, shag'al, loy, xarsang toshli yotqiziqlar qolgan. Yon tevaragidagi yotqiziqlar yuvilib ketishi natijasida konussimon shakldagi ustun ustiga chiqib qoladi. Pirovardida odam darajasiga o'xshash shakllar paydo bo'ladi. Tepadan qaraganda bir to'p qizlar daryoga tushib borayotganga o'xshaydi. Sguning uchun ham bu ajoyib ko'rinishli joyni Qirq qiz deb atashgan.

Tosh qo'ylar. Afsonaviy joylardan yana biri Nurota tog'idagi Qo'ytosh nomi bo'ladi. Qo'ytosh posyolkasidan chiqib sharqiy yonbag'rida uzoqdan qaralsa ko'm-ko'k yaylovga o'tlar orasida dam olib qo'ylar podasiga o'xshash xarsang toshlar ko'rinadi. Dinga e'tiqodi kuchli insonlar afsonasiga ko'ra bu yerda o'tlab yurganda, xudoning qahriga uchrab toshga aylanib qolganligi. Nazarimizda bu hech qanday sirli hodisa bo'lmay, balki yaqqol tabiatning mo'jizalaridan biri xolos. Bu yonbag'ir intruziv (otqindi) tog' jinslaridan biri bo'lgan granodioritlardan tashkil topgan. Mazkur jins har xil minerallar kvars, dala shpati va shunga o'xshash jinslardan tashkil topgan bo'lib, bu minerallar tashqi ofatlar ta'siri-shamol, yomg'ir, issiq-sovuqqa chidamli har xil bo'lganidan tezda yemirilib dumaloq shaklni oladi. Shuning uchun uzoqdan qaraganda, ular qo'y podasini eslatadi.

Karst buloqlar. Jizzax viloyati tog`li hududlarida ohaktoshli yotqiziqlar ham keng tarqalgan bo`lib, ular joylashgan joylarga yer osti suvlari buloq shaklida yer yuzasiga chiqib buloqlarni hosil qiladi. Ana shunday buloqlardan biri Turkison tizmasining g`arbiy qismi shimoliy yon bag`rida joylashgan Novqa bulog`i hamda Molguzar tog`ining janubiy yonbag`rida joylashgan Sadinvaqqos (avliyo) bulog`i hisoblanadi. Ushbu buloqlar atrofga nisbatan o`zining xushmanzaraligi bilan ajralib turadi hamda yozda mahalliy aholi va viloyat markazi Jizzax shahridan dam olishga keluvchilar uchun ajoyib dam olish maskanlari hisoblanadi.

2.2.4. Milliy hunarmandchilik turizmi

Jizzax viloyati aholisi ayniqsa Baxmal, G`allaorol, Forish va Zomin tumanlari aholisi qadimdan chorvachilik bilan shug`ullanib kelishgan. Ushbu tuman aholisi ayniqsa qo`ychilik va yilqichilik bilan shug`ullanishgan. Shu sababli tumanda yashovchi xalqlar o`rtasida qo`y junidan har xil buyumlar ya`ni gilam, olacha (polos), kigiz bosish kabi hunarmandchilik ishlari rivojlangan. Hozirga qadar qo`y juni asosida chiroyli gilamlar to`ish, olacha to`qish ishlari rivojlangan. Shu sababli xorijiy sayyohlar uchun mahalliy aholining milliy hunarmandchilik ishlari va ularning mahsulotlarini ko`rish katta qiziqish uyg`otadi. Bundan tashqari, Jizzax viloyati Baxmal tuman aholisi qadimdan yilqichilik bilan ham shug`ullanishgan. Shu sababli Baxmal tumanida otlarga egar yasashdan iborat milliy hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Shu munosabat bilan xorijiy sayyohlarga otga egar yasash hunarmandchiligini ko`rish ham katta qiziqish uyg`otadi. Shu munosabat bilan Jizzax viloyatiga tashrif buyurgan turistlarni viloyatning Baxmal, G`allaorol, Forish va Zomin tumanlarida qo`y junidan tayyorlanadigan hamda yog`ochdan tayyorlanadigan hamda yog`ochdan tayyorlanadigan ot anjomlarini ko`rsatish uchun ushbu tuman qishloqlariga olib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari respublikamizda tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini yanada ko`paytirish maqsadida milliy hunarmandchilik buyumlarini yasashni reklama qilish ham katta ahamiyat kasb etadi.

2.2.5. Milliy o`yinlar turizmi

Jizzax viloyatiga qarashli Baxmal, G`allaorol, Forish va Zomin tumanlari aholisi qadimdan yilqichilik bilan shug`ullangan. Shu tufayli tuman aholisi yaxshi otlarni boqib, ular bilan har xil o`yinlarni tashkil qilishadi. Ana shunday milliy o`yinlardan biri ko`pkari hisoblanadi. Mahalliy aholi o`rtasida ko`pkarida uloqni yerdan ko`tarib olish, uloqni olib ketayotgan chavandozdan uloqni tortib olish, uloqni olib kelish uchun oldindan belgilab qo`yilgan marraga olib kelib tashlashlarini ko`rish xorijiy sayyohlarda juda katta qiziqish uyg`otadi. Shu sababli Jizzax viloyatidagi Baxmal, G`allaorol, Forish, Zomin tumanlarda milliy o`yinlar ya`ni, ot chopar, otga tortishuv kabi o`yinlarni ko`rish turizmni rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

2.2.6. G`orshunoslik turizmi

Jizzax viloyati hududida joylashgan tog`larda ohaktoshli yotqiziqlar ham keng tarqalgan. Ohaktoshli yotqiziqlarda g`orlar hosil bo`lgan. Ana shunday g`orlardan biri Amir Temur darvozasi orasida joylashgan Amir Temur g`ori hisoblanadi. Ushbu g`or Jizzax shahridan 15 km. g`arbda Jizzax-Samarqand avtomobil yo`li ustida joylashgan. Ushbu g`orni ko`rsatish asosida Jizzax viloyatida g`orshunoslik turizmini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

2.2.7. Ekoturizm

Jizzax viloyati respublikamizda ekoturizm resurslariga boy hududlardan biri hisoblanadi. Ana shunday ekoturistik ob`ektlardan biri ***Zomin milliy bog`i hisoblanadi.*** Zomin milliy bog`i Turkiston tog`rizmasining g`arbi hamda Molguzar tizmasining shimoliy yonbag`rida joylashgan. Ilgari Zomin milliy bog`i o`rnida Guralash qo`riqxonasi mavjud bo`lgan. Guralash tog`-o`rmon qo`riqxonasining tashkil etilishi Turkiston tog` tizmasi g`arbiy qismining ekosistemalarini saqlab qolishda katta rolo`ynaydi. Shu bilan birgalikda qo`riqxonaning ma`lum bir vaqt davomida ishlamasligi ushbu o`lka ekosistemalarining ancha kamatishiga olib keldi. Ayniqsa tog`larda chorva mollarining boqilishi, archazorlarni o`tin sifatida

qirgʻilishi natijasida ushbu mintaqada ekosistemaning butunlay oʻzgarib ketishi va ayrim turdagi oʻsimliklar, hayvonot dunyosining butunlay yoʻq boʻlib ketishi xavfini yuzaga keltirdi. Shu munosabat bilan 1959-yilda Zomin tog-oʻrmon qoʻriqxonasi tashkil etildi. 1978-yilda Zomintog-oʻrmon qoʻriqxonasi Zomin milliy bogʻiga aylantirildi. Uning maydoni 78 ming gektar. Ushbu milliy bogʻ uch qismdan iborat. Birinchi Zomin qoʻriqxonasi, ikkinchisi uning himoya qismi va nihoyat uning uchunchi qismi Zomin milliy bogʻidir. Zomin milliy bogʻi Oʻzbekiston Respublikasi oʻrmon va ov xoʻjaligi boshqarmasiga qarashli boʻlib maʼmuriy jihatdan Jizzax viloyatining Baxmal va Zomin tumanlariga qarashli. Milliy bogʻning qoʻriqxona qismida oʻrmonchilik, ovchilik xoʻjaliklarini rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi.

Zomin milliy bogʻining geologik tuzilishi kenglik yoʻnalishi boʻylab 340 km. ga choʻzilgan Turkiston tektonik strukturasi tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu togʻda paleozoy erasiga xos slanets, qumtosh va ohaktoshlar keng tarqalgan. Ularning ustida mezazoy va kaynazoy eralariga xos yotqiziqlar ham uchraydi. Ushbu togʻ paleogenda koʻtarilib quruqlikka aylangan. Bu yerda respublikamizning boshqa togʻli hududlari kabi yer poʻstining koʻtarilishi hozir ham davom etmoqda. Buni ushbu yerda sodir boʻladigan yer silkinishlarini isbotlaydi.

Milliy bogʻlar bilanq togʻ qismi oqar suvlar evaziga kuchli boʻlaklangan. Shu sababli bu yerda tik qoyalar, togʻ va chuqur daryo vodiylari keng tarqalgan. Milliy bogʻning oʻrtacha balandlikdagi togʻ qismida togʻ yonbagʻirlari ancha qiyalashgan va soylar bilan boʻlaklangan. Togʻ yonbagʻirlarining togʻ oʻrmonlari qoplanganligi, togʻ yonbagʻirlarida sel hodisasining kamayishiga olib keladi. Shu sababli Zominsoyda 1870-1970-yillar davomida yaʼni 100 yil davomida 15 marta sel hodisasi kuzatilgan boʻlsa, oʻsimliklari nisbatan siyrak boʻlgan Sangzor vodiysida har ikki-uch yilda bir marta sel hodisasi kuzatiladi.

Milliy bog`ning iqlimini dengiz sathidan 2100 metr balandlikda joylashgan Ko`sus gidrometriologik post ma`lumotlariga asoslanib aniqlash mumkin. Ushbu gidrometriologik stansiya ma`lumotlariga ko`ra milliy bog`da o`rtacha yillik havo harorati  $4,8^{\circ}$ ni tashkil qiladi. Havo harorati yoz oylarida  $33^{\circ}$  gacha ko`tariladi. Qish oylarida havo harorati -32° gacha pasayadi. Milliy bog`da 2100 metr balandlikda yiliga 400 mln.yog`in yog`adi.Yog`inning 65 % qish va bahor oylariga to`g`ri keladi. Atmosfera yo`g`inlarining qolgan qismi yoz oylariga to`g`ri keladi. Faqat aprel oyiga, yillikyog`in miqdorining 1/3 qismi to`g`ri keladi. Milliy bog` hududida daryo va buloqlar keng tarqalgan bo`libular asosan qor suvlaridan to`yinadi. Tog` daryolarining eng kattasi Ko`lsoy va Guralash hisoblanadi. Ularning suvi may oyida ko`payadi, yoz oylarida soyda suv eng kam bo`ladi.

Milliy bog` hududida tuproq va o`simliklar balandlik mintaqalari bo`ylab joylashgan. Tog` etaklarida tipik va to`q tusli sur tuproqlar, o`rtacha balandlikdagi tog` yonbag`irlarida ekilgan rang tuproqlar, tog`ning tepa baland tog` qismida subalp va alp o`tloqlari tarqalgan. Zomin milliy bog`ining o`simliklarining joylashishi Guralash va Ko`lsoy daryolarining 1700-2300 m. balandliklarida joylashgan terrasalar yaxshi mujassamlashgan. Ushbu terrasalardan bug`doyiq o`simliklardan iborat dasht o`simliklari keng tarqalgan. Okean sathidan 2000-2500 metr balandlikdan boshlab tog`-yonbag`irlari chalov-bug`doyiq o`simliklari va siyrak archa o`rmonlari bilan qoplangan. Dengiz sathidan 2500-3000 metr balandliklardagi kuchli bo`laklangan o`rtacha balandlikdagi tog`lar qalin archazorlar bilan qoplangan. Archazorlar asosan qora archa, saur archa va o`ris archalardan iborat. Okean sathidan 2800 metr balandlikdan yuqorida baland tog` o`tloqlari rivojlangan bo`lib bu yerda oq yaproq, oqbo'sh, terak kabi chala butalar ko`pchilikni tashkil qiladi.

Tog` soylarining quyi qismida qayr o`simliklari keng tarqalgan tol,terak, namataklar, o`t o`simliklaridan qiyoch, tog` piyoz, yalpiz, qirg` bo`g`inlar keng tarqalgan. Milliy bog`dagi o`simliklarning 23 turi O`zbekiston "Qizil kitobiga" kiritilgan. Ularning besh turi (Oshanin piyoz, eremrus, ulkan lolalar) yo`qolib

borayotgan guruhiga, 11 tur o`simlik turlari (astragal, Jizzax quyonsuyagi) lola gular kam uchraydigan o`simliklar turiga kiradi. Oziq-ovqatda ishlatiladigan o`simliklardan qulunay, bar baris, boyarishniklar keng tarqalgan.

Milliy bog`da 60 turdan ko`proq qushlar (to`rg`ay, miqqiy, ukki, boyo`g`li, bedana, kaklik, qig`iy, kalxat, boltatumshuq va h.k.) uchraydi. Sudralib yuruvchilardan agama, kaltakesak, chipor ilon, suv ilon va qalqontumshuq ilonlar uchraydi. Sut emizuvchilarning 20 ga yaqin turi uchraydi. Tipratikon, jayra, tog` suvsari, oq tirnoqli ayiq, bo`ri, tulki, to`ng`iz va tog` takasi shular jumlasidandir.

Zomin milliy bog`i eng avvalo tog` archa o`rmonlarini saqlab qolish, ularni qo`riqlash maqsadida tashkil etilgan. Shu bilan birgalikda qo`riqxonada o`simliklar olamini o`rganishda katta ishlar olib borilmoqda. Bu sohada respublikamizda botanik olimlarning xizmati katta. Bu yerda 200 dan ortiq dorivor o`simliklar turi o`sishini aniqlashgan. Shunday o`simliklardan namatak, gazanda, dalachoy, qizilchoy, tog` rayxoni, Zarafshon, Turkiston va o`riq archalar, qirqbo`g`in va boshqalar. Milliy bog`da piyoda yurish va tog` turizmini rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta. Bu joydan sghifobaxshlik turizmidan foydalanilmoqda. Chunki, bir gektar archa o`monlaribir sutkada 24 kg fitosintlar chiqaradi. Bu esa 20 ming aholi yashaydigan bir shahar aholisining turli xil bakteriyalardan tozalaydi. Shu sabab milliy bog`da bug`ma kasalligi bilan kasallangan insonlarni davolaydigan sanatoriya faoliyat ko`rsatmoqda.

Shunday qilib, Zomin qo`riqxonasi va Zomin milliy bog`ida ekoturizmni rivojlantirish maqsadida foydalanishda eng avval turistlarni bu hududning ajoyib xushmanzaratabiiy, toza havosi, har xil shifobaxsh o`simlikari, o`ziga xoshayvonot dunyosi hamda har xil shakldagi qoyali toshlar, shofobaxsh toza havosi hayvonot dunyosi haqida so`zlab berish muhim ahamiyatga ega. Shundan keyin turistlarni milliy bog`da gid boshchiligida olib chiqish va milliy bog` tabiati bilan tanishtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Nurota tog`-o`rmon qo`riqxonasi.** Nurota tog`-o`rmon qo`riqxona (rezervatsiya)si Shimoliy Nurota tog`ining markaziy qismida joylashgan bo`lib u ma`muriy jihatdan Jizzax viloyatining Forish tumaniga qaraydi. Qo`riqxona O`zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi Zoologiya va Parazitologiya instituti xodimlarining tashabbusi bilan 1975-yilda yo`qolib borayotgan Qizilqum qo`yini saqlab qolish uchun tashkil qilingan. Qo`riqxonaning umumiy maydoni 100 ming gektarga teng. Hozirgi kunda Aydar-Arsanoy cho`kmasi o`rnida tarkib topgan Aydar-Arnasoy ko`llar tuzilmasining bir qismi ham ushbu qo`riqxona tarkibida kiritilgan bo`lib, ushbu qo`riqxona mazkur hududdagi biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga qaratilgan. Shu sababli ushbu qo`riqxona Nurota tog` yong`oq o`rmon qo`riqxonasi deb yuritiladi. Nurota qo`riqxonasining iqlimi yoz oylarida ancha salqin. Iyul oyining o`rtacha harorati  $29.4^{\circ}$ ni tashkil qiladi. Yog`inlar asosan qish va bahor oylarida yog`adi. O`rtacha yillik yog`in miqdori 250-500 mm. Atmosfera yog`inlarining ancha ko`p bo`lsa qo`riqxona hududida joylashgan Uxum va Majrumsoylarning ancha sersuv bo`lishiga olib keladi.

Qo`riqxona hududida 1200 dan ortiq o`simlik turlari uchraydi. Ularning 1000 tasi shu yer uchun endemik hisoblanadi. Qo`riqxonada o`simliklar balandlik mintaqalari bo`ylab tarqalgan. Tog`-yonbag`irlarida astragal, tog`larda pista, bodom, o`rik, olcha, tut, olma, nok undan yuqorida Zarafshon archasi o`sadi. Qo`riqxonadagi noyob daraxtlardan biri savr daraxti. Ayniqsa majrumsoyda asriy savrlar o`sadi. Qo`riqxonaning hayvonot olami ham o`ziga xos. Sudralib yuruvchilardan kaltakesak, echkiemar, toshbaqa va ilonlar uchraydi. Qushlardan mayna, bulbul, kaklik, bedana, zag`izag`on. Kam uchraydigan yirtqich qushlardan-tasqara, boltayutar, qora kalxat, burgutlar uchraydi.

Qo`riqxonada okean sathidan 600-1200 m balandlikda Qizilqum qo`yi yashaydi. Noyob “Qizilqum tog` qo`yi”, “O`zbekiston qizil kitobi” ga kiritilgan. Muhofaza tufayli tog` qo`yi muntazam ko`paymoqda. Nurota tog` o`rmon qo`riqxonasi va uning atrofini uch qismga bo`lish mumkin. Uning birinchi qismi inson xo`jalik faoliyati butunlay taqiqlangan mintaq. Uning maydoni 22.5 ming

gektarni tashkil etadi. Ikkinchi qismi qo`riqxonada atrofida himoya mintaqasi bo`lib, ushbu mintaqaning tabiati qanday bo`lsa shundayligicha saqlashdan iborat. Bu yerda inson xo`jalik faoliyatining ta`siri deyarli sezilarli bo`lmaydi. Uchinchi (agro) mintaqasida esa biosfera rivojiga salbiy ta`sir etmaydigan xo`jalikning ishlari olib boriladi. Qo`riqxonada va uning atrofi bunday qismlarga ajratish, global ahamiyatga ega bo`lgan biologik xilma-xillikni saqlab qolish imkoniyatini beradi.

Qo`riqxonani tashkil etishdan maqsad bu yerdagi mavjud biologik xilma-xillikni saqlab qolishdan tashqari, ushbu qo`riqxonada atrofida yashayotgan aholining qo`riqxonani muhofaza qilishdan manfaatdorligini oshirishdan iborat. Buning uchun mahalliy aholini shu yerdagi amalga ashirilayotgan tabiat muhofazasiga jalb qilishdan iborat. Buning uchun qo`riqxonada atrofida joylashgan qishloqlarning etnografik muzeyini yaratish maqsadga muvofiq. Ushbu muzeyda mahalliy aholining urf-odatlarini o`z aksini topishi lozim. Bundan tashqari Qo`riqxonaga keluvchi sahojylarning dam olishga mo`ljallangan qora uydan tiklangan mehmonxona va ovqatlanadigan joylar bo`lishi shart. Qo`riqxonadagi noyob hayvonot olami, o`simliklar olami, noyob daraxtlar bilan tanishtiradigan yo`lovchini ham mahalliy aholidan tanlash kerak. Yo`lovchi qo`riqxonaga boradigan barcha so`qmoq yo`llarni yaxshi bilishi shart va turistlarni shunday qo`riqxonaga olib borish kerakki, ularning tabiatiga ta`siri butunlay sezilmasin. Qo`riqxonaga kelgan sayyohlarni transportda olib borish uchun bu yerda mahalliy aholining otlaridan foydalanish lozim. Sayohatchilarga sotish uchun mahalliy aholi tomonidan har xil suvenirlar tayyorlash, mahalliy to`quvchilar tomonidan to`qilgan matolar tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday ishlarning amalga oshirish mahalliy aholining qo`riqxonasi himoyasida faol ishtirok etishga va ularning qo`riqxonada himoyasidan manfaatdor bo`lishga olib keladi.

Nurota-Qizilqum biosfera qo`riqxonasida tabiatni muhofaza qilish ishiga yangicha yondoshish O`rta Osiyoning boshqa hududlarida ham tashkil etishga qo`riqxonalarda shunday ishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Arnasoy-Aydarko'l tizimi. 1969-yilda O'zbekistonda qishning qattiq bo'lib, ko'p qor yoqqanligi tufayli Sirdaryodan ko'p suv kelib Chordara suv omboriga qutilishi tufayli ushbu suv omboridan 21 mln m³ suv Aydar botig'iga tashlanadi. Natijada Aydar-Arnasoy ko'l tizimi tarkib topishi bu yerda baliqchilikni rivojlantirish imkoniyatini yaratdi. Natijada ko'lga ko'plab suvga suzuvchi qushlarning bu yerga kelishiga va she yerda uyalab ko'payishiga sharoit tug'iladi.

Ko'ldagi ko'pgina qushlar endemik qush turlari hisoblanadi. Bu esa Aydar-Arnasoy ko'l tizimiga ko'plab turistlarni jalb qilish imkoniyatini beradi. Ko'l tizimiga keluvchi turistlar nafaqat cho'milib hordiq chiqarishlari, balki, baliq ovlab dam olishlari noyob qush turlarini o'rganishlari mumkin.

Xulosa

Shunday qilib Jizzax viloyatida turizmning maxsus turlarini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, respublikamizning boshqa viloyatlari kabi o'rganilayotgan hudud turizm imkoniyatlariga nihoyatda boydir. Viloyat hududidagi turistik imkoniyatlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin. Bular quyidagilar: milliy madaniyatga qiziqish, turizmi, qishloq va fermerlar hayoti bilan tanishish turizmi, milliy hunarmandchilik turizmi, milliy o'yinlar va milliy taomlar turizmi, g'orshunoslik turizmi, spelioturizm, chang'ida uchish turizmi va boshqalar. Jizzax viloyatining qishloqlarida yashovchi aholining **milliy urf-odatlar**i nihoyatda qiziqarli va rang-barang, shular ichida uy to'yi, kelin to'yi, sunnat to'yi, mehmon kutish va mehmondorchilik xorijiy turistlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Jizzax viloyatida **qishloq va fermerlar hayoti turizmini** o'rganish shuni ko'rsatadiki, viloyatning sug'oriladigan yerlarida fermerlar asosan sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanib, ular paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik bilan shug'ullanadilar. Viloyatning tog' oldi va tog'li hududlarida fermerlar lalmi dehqonchilik, chorvachilik hamda lalmi qovun va tarvuz yetishtirish bilan shug'ullanadi. Tog' oldi va tog'li hududlarda yashovchi mahalliy aholining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishini ko'rish xorijiy sayyohlarda katta qiziqish uyg'otadi. Viloyatning cho'l hududlarida mahalliy aholi asosan yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanishadi, ularning turmush tarzi, ixtisoslashuvi xorijiy sayyohlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Jizzax viloyati aholisida o'ziga xos **milliy hunarmandchilik** ham yaxshi rivojlangan. Ayniqsa, bu yerda egar yasash, gilam to'qish, kigiz bosish an'anaviy ahamiyatga ega. Bular ham xorijiy sayyohlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Jizzax viloyati aholisi qadimdan yilqichilik bilan shug'ullanib kelishadi. Shu asosda bu yerda to'ylarda **ko'pkari** chopish ishlarini ko'rish xorijiy sayyohlarda juda katta qiziqish uyg'otadi. Viloyat aholisi o'ziga xos milliy taomlar tayyorlash

imkoniyatiga ega. Ayniqsa, yilqi sutidan qimiz tayyorlash, tandir kabob tayyorlash, g'ilmindi tayyorlashni ko'rish xorijiy sayyohlarda katta ta'surot qoldiradi. Jizzax viloyati hududi tabiat yodgorliklariga ham juda boy. Bularga tik qoyalar, g'orlar, buloqlar, tabiatning so'lim go'shalari va boshqalarni aytish mumkin. Bular orasida viloyatda dam olish va davolanish hamda sog'lomlashtirish turizmi, spelioturizm, qish oylarida chang'ida uchish kabi turizm turlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Yuqorida qayd etilgan turistik imkoniyatlardan foydalanish, ularni ishga solish Jizzax viloyatida kelajakda turizmni yanada rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni, O'zbekistonning yangi qonunlari- Toshkent: Adolat 2000
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek turizm milliy kompaniyasining tashkil etish to'g'risida" gi farmoni.N P.F.-447 Xalq so'zi, 1992.22
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 2-iyundagi 1162 raqamli "Buyuk ipak yo'li"ni qayta tiklashdagi O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni. Xalq so'zi. 1995. 3-iyun.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi" 325-sonli qarori, 17-aprel 2006.
5. Aliyeva M.G, Umarjonov A. "Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti", Toshkent, Moliya, 2005.
6. Aliyeva M.G, Salimova B.X. "Mehmonxona menejmenti", Toshkent, 2007.
7. Алиева М.Г., Хасанов Л.Т, "Организация туристических маршрутов". Ташкент, 2007.
8. Ahmadxo'jayev X. Mamarasulov X. Madiyorov F."Marketing tadqiqotlari", Toshkent, 2002
9. Александрова П.Ю. География туризма. Москва, 2008.
10. Ахмедов Х.И, Аллаберганов А.Р. "Организация туристической деятельности" Ташкент 2004.
11. Биржанов Т.Б. «Введение в туризм» Издательство дом Герда, 2006.
12. Дурович А.П. «Организация туризма» Москва, 2005.
13. Квартальнов В.А.«Теория и практика туризма» Москва, «Финанса и статистика», М. 2003
14. Комилова Ф. Халқаро туризм бозори. –Т.: TDIU, 2001.

15. Mamatqulov X.M. “Xalqaro turizm”, Samarqand, 2003.
 16. Мироненко Н.С., Твердохлебов И.Т. Рекреационное районирование. Характеристика рекреационных зон //Рекреационная география.- М., 1981
 17. Nabiyeva S.A., Ahmedov I.A, “Ekskursiyashunoslik” Toshkent, 2005.
 18. Pardayev M.Q. Ataboyev R. Turizm asoslari. Sam GSI. Samarqand, 2006.
 19. Pardayev M.Q. Ataboyev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. Sam GSI. Samarqand, 2006.
 20. Родмон Б.Б. Географические проблемы отдыха и туризма //Территориальные системы производительных сил. – М.: Мысль, 1971
 21. Soliyev A., Usmonov M. Turizm geografiyasi.-Samarqand, 2005
 22. To'xliyev I.S. “Turizm asoslari” Samarqand, 2008.
 23. Hayitboyev R., Hayitboyev K., Xudoyberdiyev U. “Tabiatdan foydalanish iqtisodi” Samarqand, 2004.
 24. Hayitboyev R., Amriddinova R.A., “Turizmning maxsus turlari” - Samarqand, 2008.
 25. Eshtayev A.A., Ahmedov I.A, Aliyeva M.G. “Turizmni rejalashtirish” Toshkent, 2007.
- www.zionet.uz
- www.lex.uz
- www.tourizm.uz